
ISSN: 3030-377X

SCIENCE SHINE
ILM NURI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL | XALQARO ILMIY JURNAL | МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



ABSTRACT

This international scientific journal is created for new scientific research.

Articles are accepted in the following areas:

- specific and technical directions
- social directions
- directions of philology
- pedagogic directions
- directions of discovery and invention
- natural science majors

2024 MAY 25

Issue 16, Volume 1

http://science-shine.uz

SCIENCE SHINE
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC JOURNAL

ILM NURI
XALQARO
ILMIY JURNALI

СВЕТ НАУКИ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ
НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ



INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

SCIENCE SHINE

Issue XVI.

25. 05. 2024

ISSN: 3030-377X

International scientific journal

"SCIENCE SHINE"

Bosh muharrir:
D. Z. Olimjonov

Jurnal bir oyda bir marta chop etiladi.

Jurnal

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi

Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-y il 16-fevralda

№063974 sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal davriy nashri uchun

ISSN: 3030-377X raqam ostida ro'yxatga olingan

Maqola ko'chirilib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart

Aloqa uchun:
Telefon: +99899 011 6303
E pochta: scienceshine@mail.ru

Veb sayt:
http://science-shine.uz/

Tahrir kengashi:

Xurshid Jumanazarov Sirojiddinovich
O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Mamatov Obidxon Vaqqosovich
Namangan davlat universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat va huquq asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi

Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Impuls universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Jo'rayeva Sobira Eshqurbonovna
O'zMU jurnalistika fakulteti, o'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Bazarov Otabek Odilovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti, PhD

Azizov Olimjon Toxirovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti GSKMT kafedrasi dotsenti

G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o'qitish metodikasi katta o'qituvchisi

Isroilov Ozodbek Saydullajon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Haydarova Umida Xojiakbar qizi
Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi

Nozima Mamadjanova Adxamovna
Namangan davlat universiteti Ingliz tili fani o'qituvchisi, Pedagogika fanlari fansafa doktori (PhD)

AI IN ENGLISH TEACHER TRAINING

Jakhongir Khasanov
Teacher of Alfraganus University

Annotation: This research article explores the application of artificial intelligence (AI) to enhance autonomous learning competence in future English language teachers. It discusses personalized educational programs, interactive learning tools, AI-based assessment methods, and challenges such as data security. The study emphasizes AI's potential to improve teaching methods and offers recommendations for effective integration into education systems.

Key words: Artificial intelligence, autonomous learning, English language teaching, personalized education, interactive learning.

Modern education requires constant development and improvement of teaching methods. In this context, enhancing the competence of autonomous learning in future English language teachers becomes a pressing issue. One of the promising directions in this field is the use of artificial intelligence (AI) in education. This article is dedicated to exploring the possibilities of applying AI to enhance the competence of autonomous learning in future English language teachers.

One of the main advantages of using artificial intelligence in education is the ability to create personalized educational programs. According to Schwab, "AI allows for the adaptation of teaching to the specific student, taking into account their level of knowledge, pace of learning, and individual characteristics" [1]. This approach enables the effective use of teaching time and maximizes the potential of each student. Another important aspect of using artificial intelligence in education is the ability to create interactive learning tools. According to Lee, "AI allows for the development of educational games and applications that make the learning process more engaging and effective" [2]. Such tools can stimulate students' interest in learning English and contribute to the development of their autonomy in learning.

Furthermore, the use of artificial intelligence allows for the effective assessment of students' knowledge levels. According to Smith, "AI can analyze test results and offer recommendations for further education of each student" [3]. This approach enables teachers to effectively monitor students' progress and adjust the educational process according to their needs.

On the other hand, it should be noted that the use of artificial intelligence in education also brings certain challenges and problems. One of the main issues is the need to ensure the security of student data. According to Johnson, "Special mechanisms need to be developed to protect data to prevent leakage and misuse" [4]. This requires additional efforts from organizations implementing AI in the educational process.

Additionally, artificial intelligence can be effectively used to create a feedback system. According to Wilson, "AI allows for the automation of the feedback process, enabling students to correct mistakes and improve their skills more quickly" [5]. This approach facilitates faster and more effective learning material assimilation. Thus, the use of artificial intelligence in education has both positive and negative aspects. However, with the right approach and effective risk management, AI can significantly enhance the competence of autonomous learning in future English language teachers.

In addition to the advantages listed, the use of artificial intelligence in education also promotes the development of new methods for assessing students' knowledge. Machine learning systems can analyze large amounts of data and identify patterns in students' responses to test tasks. This allows for the creation of more complex and intellectually stimulating assignments that help students better assimilate the material.

Moreover, artificial intelligence can be used to create virtual learning environments. According to Zhang, "Virtual environments allow students to immerse themselves in the language environment, interact with native speakers, and apply their knowledge in practice" [6]. Such environments can be particularly useful for teaching conversational English, helping students develop communication skills in a foreign language. Another advantage of using artificial intelligence in education is the ability to create individualized educational plans for each student. According to Brown, "AI allows teachers to adapt the curriculum to the specific needs of each student, which promotes more effective material assimilation" [7]. This approach allows teachers to work effectively with each student and take into account their individual characteristics.

Thus, the use of artificial intelligence in education can significantly improve the quality of training for future English language teachers. Personalized educational programs, interactive learning tools, new methods for assessing student knowledge, and virtual learning environments—all these make the learning process more effective, interesting, and accessible. Another advantage of using artificial intelligence in education is the ability to create adaptive testing systems. Such

systems can analyze students' responses to previous questions and automatically select subsequent questions in such a way as to match the student's knowledge level. This allows for more effective determination of preparedness and adaptation of testing to the individual needs of each student.

Moreover, artificial intelligence can be used to create educational assistants. According to Garcia, "Educational assistants based on artificial intelligence can help students solve problems, explain complex concepts, and offer additional materials for study" [8]. Such assistants can significantly facilitate the learning process and improve material comprehension.

Artificial intelligence can also be used for big data analysis in education. According to Li, "Data analysis using AI allows for the identification of trends in education, determination of the effectiveness of educational programs, and identification of areas requiring further development" [9]. This approach allows for more accurate determination of educational system development strategies and enhancement of its effectiveness.

Thus, the use of artificial intelligence in education opens wide prospects for improving the learning process. Personalized educational programs, interactive learning tools, adaptive testing, educational assistants, and big data analysis—all these make learning more effective, accessible, and interesting for students.

References:

1. Shvab, A. Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Perspectives. "Science and Education", 2020, No. 2, pp. 45-52.

2. Lee, C. Development of Educational Applications Using Artificial Intelligence. "Innovations in Education", 2019, No. 4, pp. 112-118.

3. Smith, D. Application of Artificial Intelligence for Student Knowledge Assessment. "Education and Science", 2018, No. 3, pp. 76-83.

4. Johnson, M. Data Security Issues in the Use of Artificial Intelligence in Education. "Information Security", 2020, No. 5, pp. 32-39.

5. Wilson, P. Automation of Feedback Process Using Artificial Intelligence. "Innovations in Education", 2021, No. 1, pp. 87-94.

6. Zhang, I. Development of Virtual Learning Environments Using Artificial Intelligence. "Modern Education Technologies", 2022, No. 1, pp. 56-63.

7. Brown, M. Individualized Educational Plans Using Artificial Intelligence. "Innovations in Education", 2021, No. 3, pp. 78-85.

8. Garcia, D. The Role of AI-Based Educational Assistants in Education. "Information Technologies in Education", 2021, No. 4, pp. 67-73.

9. Lee, K. Big Data Analysis in Education Using Artificial Intelligence. "Scientific Pedagogical Bulletin", 2020, No. 3, pp. 88-95.

O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Dildora Xakimdjanova Kamilevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU, “Menejment va marketing” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekistonda elektron tijorat bo‘yicha mavjud muammolarni hal qilishning to‘g‘ri yo‘li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishida o‘z aksini topishi haqida keltirilgan.

Kalit so‘zlar: elektron tijorat, raqamli harajatlar, elektron tijorat sanoati, elektron bozor, IT Park, raqamli to‘lovlar, onlayn platforma.

Kirish

O‘zbekistonda elektron tijoratni rivojlantirish imkoniyatlari yildan yilga o‘sib borayotganligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Uning rivojlanishi milliy ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarga yangi bozorlar ochish, yangi mijozlar topish imkoniyatlarini yaratadi. Elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha tanlangan va amaldagi yo‘ldan to‘g‘ri borish, kelajakda O‘zbekiston iqtisodiyotini jahon bozorining yetakchi vakillaridan biriga aylantiradi. O‘zbekistonda elektron tijorat bo‘yicha mavjud muammolarni hal qilishning to‘g‘ri yo‘li tanlanganligi xalq farovonligida, jamiyatimizning taraqqiy topishida, iqtisodiy rivojlanishida o‘z aksini topadi.

Asosiy qism

Statistika tadqiqoti O‘zbekiston bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni taqdim etadi: 2020 yilda mamlakatning elektron tijorati 481,3 million dollar daromad keltirdi va mamlakatdagi jami raqamli daromadlarning 68 foizini tashkil etdi. Raqamli ommaviy axborot vositalari, elektron xizmatlar va elektron sayohatlar qolgan 32% ni tashkil etdi. O‘zbekistonda raqamli harajatlar past bo‘lib, 2020 yilda aholi jon boshiga iste’mol harajatlarining 1,2 foizini tashkil qilgan bo‘lsa, Osiyoda o‘rtacha 3,1 foizni tashkil etadi. 2025 yilga kelib elektron tijorat daromadlari har yili 6,3 foizga o‘sishi kutilmoqda. Odamlar asosan moda mahsulotlarini (32 foizga) va elektronikani (31 foizga) onlayn xarid qilgan, ikkinchi o‘rinda oziq-ovqat va shaxsiy parvarish (14

foiz), o‘yinchoqlar, sevimli mashg‘ulotlari va o‘z qo‘llaringiz bilan qilingan buyumlar 11,5%, mebel va maishiy texnika (11%).

O‘zbekistonda elektron tijorat sanoati rivojlanishning dastlabki bosqichida. 2022-yil yanvar holatiga ko‘ra,

- 35,5 million aholisi bo‘lgan mamlakatda internetdan foydalanuvchilar soni 27,2 million kishini tashkil etadi;

- 25,3 million mobil internet foydalanuvchisi va 3,2 million doimiy keng polosali internet foydalanuvchisidir.

Xalqaro ma’lumot uzatish kanallarining o‘tkazuvchanligi 1800 Gbit/s ni tashkil etadi va 2022 yil oxirigacha 3200 Gbit/s gacha kengaytiriladi. Mamlakat telekommunikatsiya infratuzilmasiga sarmoya kiritmoqda, biroq Speedtest.net uni mobil aloqa sohasida 138 mamlakat ichida atigi 118-o‘rinda turadi.

Internet, 13,78 Mbit / s yuklab olish va 6,83 Mbit / s yuklash tezligi bilan. U 40,16 Mbit / s yuklab olish va 37,92 Mbit / s yuklash tezligi bilan qattiq keng polosali internet bo‘yicha 174 mamlakat ichida 86-o‘rinni egallaydi. Elektron tijoratni rivojlantirishga ko‘maklashish uchun hukumat an'anaviy biznes uchun 4% stavka bilan solishtirganda onlayn daromaddan atigi 2% soliq undiradi. O‘zbekiston qonunlari dori vositalari va tibbiy buyumlarni onlayn sotishga ruxsat beradi hamda tovarlar va xizmatlar uchun to‘lovning huquqiy tasdig‘i sifatida elektron chek va schyot-fakturalarga ruxsat beradi. O‘zbekiston Markaziy banki 2019 yilda Visa bilan raqamli to‘lovlar uchun infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha o‘zaro anglashuv memorandumini imzoladi va ko‘plab banklar onlayn to‘lovlarni qayta ishlashni osonlashtirish uchun elektron tijorat veb-saytlariga to‘lov dasturlari va xizmatlarini taklif qilmoqda.

Elektron tijoratda IT-mutaxassislari sonini ko‘paytirish maqsadida 2018 yilda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida elektron tijorat bo‘limi ochildi. 2020-2022 yillarda hukumat elektron tijorat o‘sishini rag‘batlantirish uchun bir qator muhim qadamlarni qo‘ydi:

- 2020 yil oktabr oyida “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining qabul qilindi. Hukumat butun mamlakat bo‘ylab qurilgan optik tolali aloqa tarmog‘i uzunligini hozirgi 118 ming kilometrdan (73,322 milya) 2030 yilgacha 250 ming kilometrga (155,343 milya) oshirishni rejalashtirmoqda; 2030 yilga borib yuqori tezlikdagi internet qamrovini hozirgi 67 foizdan 100 foizgacha oshirish; 2022 yilgacha keng polosali mobil aloqa tarmog‘i qamrovini joriy 78 foizdan 100 foizgacha kengaytirish; hamda axborot texnologiyalari sohasida oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalariga qabul qilish uchun yillik kvotani 2030-yilga borib hozirgi 7

mingdan 20 ming nafarga oshirish. O‘zbekiston 2021-2022 yillarda raqamli infratuzilmani rivojlantirishga 2,5 milliard dollar sarmoya kiritishni rejalashtirayotganini ma’lum qildi.

- 2021-yil mart oyida “O‘zbekiston pochtasi” davlat aksiyadorlik jamiyati tomonidan[1] «Milliy onlayn-savdo platformasining ishga tushirilishi: Tizim orqali tadbirkorlar o‘z mahsulotlarini kimoshdi savdosiga qo‘yishlari mumkin;

- “O‘zbekiston pochtasi” xarid qilingan tovarlarni xaridorning manziliga yetkazib beradi, shu bilan sotuvchi va xaridor o‘rtasida kafil sifatida javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi;

- Davlat kompaniyasi logistika markazlari sonini 2021 yildagi 4 tadan, 2025 yilda 30 tagacha va Platformada joylashtirilgan obektlar sonini 2021 yildagi 10 000 tadan, 2025 yilda 1500000 tagacha oshirishni rejalashtirmoqda;

- hamkorlik uchun mahalliy va xalqaro onlayn-do‘konlar soni 2021-yildagi 10 tadan 2025-yilda 125 taga yetishi kerak.

O‘zbekiston Eksportni qo‘llab-quvvatlash agentligi 2020-yil oktabr oyida Xitoyning “Alibaba” elektron tijorat firmasi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, Alibaba.com platformasida “Made in Uzbekistan” bo‘limini yaratdi, unda tanlangan mahalliy kompaniyalar mahsulotlari namoyish etiladi; hukumat Alibaba.com platformasida 300 dan ortiq mahalliy kompaniyalarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun moliyaviy yordam ko‘rsatishni rejalashtirmoqda. 2021 yil 1 iyuldan boshlab investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Raqamli transformatsiya markazi mas’ul bo‘lgan elektron tijorat uchun “Ochiq raqamli ekotizim” axborot tizimlari majmuasini ishga tushirish. Ekotizimda savdo tomonlarning shartnoma majburiyatlari bajarilishini ta'minlash uchun eskrou hisob qaydnomasi bo‘ladi. Raqamli ekotizimga integratsiyalashgan elektron tijorat platformalari operatorlarining daromad solig‘i stavkasi 2024 yil 1-yanvargacha 50 foizga pasaytirildi.

Eng mashhur onlayn platforma - Glotr bo‘lib, u mahalliy kompaniyalarga mahsulot va xizmatlarni sotish uchun veb-saytlar yaratish imkonini beradi. Individual tranzaksiyalar OLX va Arbada ko‘proq mashhur. Transchegaraviy elektron tijoratda AliExpress O‘zbekistonda ustunlik qiladi. Kompaniyalar o‘z mahsulot va xizmatlarini ilgari surish uchun ijtimoiy tarmoqlardan (Facebook, Telegram va boshqalar) ham faol foydalanadilar. Bir nechta banklar tadbirkorlar va kompaniyalarga o‘z veb-saytlari va ilovalarida elektron tijorat xizmatlarini o‘rnatish uchun to‘lov vositalarini taklif qilishadi, bu esa o‘z mijozlariga mahsulot va xizmatlar

[1] https://www.unisavdo.uz/

uchun onlayn to‘lovlarni amalga oshirish imkonini beradi. Davlat pochta xizmati kompaniyasi Unisavdo milliy onlayn savdo maydonchasini yaratdi va uni 2025 yilga borib yirik elektron bozorga aylantirishni rejalashtirmoqda. 2019 yil iyul oyida tashkil etilgan IT Park Uzbekistan tarkibiga turli xil raqamli xizmatlarni taklif etuvchi 588 rezident kompaniyalar kiradi. IT Park ma’muriyati[2] mijozlarga xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar bilan bog‘lanishda yordam berishi mumkin.

Har yili yillik xalqaro Elektron tijorat kuni konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Yillik AKT haftaligi (har sentyabr oyida tashkil etiladi) elektron tijorat bo‘limini o‘z ichiga oladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, elektron tijoratda marketing va reklamaning ahamiyatini oshirib bo‘lmaydi. Elektron tijorat landshafti global miqyosda kengayishda davom etar ekan, samarali marketing va reklama strategiyalari ushbu raqobat muhitida muvaffaqiyat qozonishni maqsad qilgan korxonalar uchun zarur bo‘lib qoldi.

Elektron tijoratning raqamli tabiati maqsadli marketing harakatlari, shaxsiylashtirilgan reklama va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Raqamli kanallardan foydalangan holda, korxonalar keng va xilma-xil auditoriyani qamrab olishi, qiziqarli va interaktiv tajribalarni yaratishi va mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirishi mumkin. Bundan tashqari, global savdoning o‘zaro bog‘liqligi madaniy nuanslarni, mintaqaviy imtiyozlarni va mahalliy bozor dinamikasini chuqur tushunishni talab qiladi.

Muvaffaqiyatli elektron tijorat marketingi va reklama kampaniyalari turli geografiyalar, tillar va madaniyatlarda iste'molchilar bilan rezonanslasha oladigan kampaniyalardir. Oxir oqibat, elektron tijoratda marketing va reklamaning roli tranzaksiya munosabatlaridan tashqariga chiqadi. Bu jozibali brend hikoyalarini yaratish, ishonchni mustahkamlash va mijozlarga qiymat berish haqida. Raqamli marketing vositalarining kuchidan foydalangan holda, korxonalar rivojlanayotgan iste'molchilarning xatti-harakatlari va bozor tendentsiyalariga moslasha oladi, shu bilan birga o‘sishni rag‘batlantiradi va dinamik elektron tijorat maydonida raqobatdosh ustunlikni saqlab qoladi.

Foydalingan adabiyotlar:

[2] info@it-park.uz

1. D.X. Suyunov, A.T. Kenjabayev, A.O. Ro‘ziyev. “Elektron tijorat” – Toshkent 2023.
2. U. Yakubov, M. Azizova, M. Jumaniyazova, “Elektron tijorat”. O‘UM. Tashkent. TMI., 2019
3. https://www.marketingweek.com
4. https://stockanalysis.com/stocks/aapl/revenue/
5. https://www.statista.com/
6. https://www.unisavdo.uz/
7. info@it-park.uz
8. https://www.linkedin.com/pulse/5-examples-successful-marketing-strategies-famous-brands-mettevo

“STRIZH” VA “LORA” TEXNOLOGIYALARINI SOLISHTIRISH

Gulshanoy Yunusova Umarali qizi,
Eldorbek Xujamkulov G‘ayratjon o‘g‘li,
Janibek Kurbanov Fayzullaevich,
Izzatjon Qodirov Abrorjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya. Muhim parametr simsiz aloqada uzatish masofasidir. Masofaga ta’sir qiluvchi asosiy omil ma’lumotlarni uzatish tezligidir. Suv, elektr, gaz yoki issiqlik hisoblagichlari kabi hisoblash asboblari uchun telemetryani ko‘rib chiqishda, atigi 8 baytgacha ma’lumot paketlarini uzatish talab qilinadi, bu esa ko‘rsatkichlarni uzatish masofasini ta’minlash muhimdir. Tezlikni pasaytirish orqali masofani oshirish uchun bir necha texnik yechimlar mavjud. Bugungi kunda LPWAN tarmoqlarida ma’lumotlarni uzatishda ikkita yondashuv qo‘llaniladi: qabul qiluvchidagi xalaqit darajasini kamaytirish maqsadida spektrni toraytirish - “Strizh” texnologiyasidan foydalangan holda tor polosali yondashuv va qabul qiluvchidagi yuqori shovqin darajasiga qarshi kurashish uchun yuqori tezlikdagi ma’lumotlar uzatishda keng polosali kodlashdan foydalanish - LoRaWAN tarmoqlaridagi LoRa yondashuvi.

Kalit so‘zlar: LoRaWAN tarmoq, LoRa, Strizh, simsiz aloqa, LPWAN, DBPSK

KIRISH

“Strizh”. Vaqtinchalik qabul qilingan DBPSK modulyatsiyasi orqali “Strizh” tarmog‘ida signal uzatish. Ushbu tarmoqda signal uzatish chastotasi polosasi 100 Gs ni tashkil etadi va ma’lumotlarni uzatish minimal tezligi 50 bodga teng. Tor polosali signal 100 Gs va har bir bit ma’lumoti uchun yuqori energiya sarfi aloqa kanalining ajoyib energetik salohiyatini (link budget) va yuqori shovqinga chidamliligini ta’minlaydi. “Strizh” qurilmalarida past energiya sarfi va yuqori samaradorlikka ega sifatli komponentlardan foydalanish orqali yuqori energiya samaradorligi va uzoq muddatli mustaqil ishlash muddatiga erishiladi. Yangi avlod bazaviy stansiyalari optimallashtirilgan patentlangan blok kodlash usuli va qo‘shimcha matematik algoritmlardan foydalangan holda qabulda - 154 dBm sezgirlikni ta’minlaydi. Tor polosali tizimlardan foydalanish uchun kvars generatorining barqarorligi yuqori talablarga ega bo‘lgan va generator xatolari qabul polosasidan chastota sirpanishiga olib keladi.

Bugungi kunda savdo maqsadlarida foydalaniladigan kvarts generatorlarining aniqlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan, bu esa tor polosali yondashuvni qo‘shimcha qismlar xarajatlarini minimal darajada ushlab turish bilan, mavjud chastota resurslaridan sezilarli darajada tejash imkonini beradi. LoRa o‘zining modulyatsiya usulini qo‘llaydi, bu usul spektrni kengaytirish texnikasi (spread spectrum modulation) va chiziqli chastota modulyatsiyasining o‘zgarishiga (chirp spread spectrum, CSS) asoslangan bo‘lib, bu yerda ma’lumotlar keng polosali impuls orqali kodlanadi. Bunday yechim, to‘g‘ridan-to‘g‘ri spektrni kengaytirish texnologiyasidan farqli o‘laroq, qabul qiluvchini nominal qiymatdan chastota o‘zgarishlariga bardoshli qiladi va soat generatoriga qo‘yiladigan talablarni soddalashtiradi, bu esa arzon kvarts rezonatorlaridan foydalanish imkonini beradi. Kod manipulyatsiyasi orqali LoRa - 20 dB darajasidagi shovqinlar fonida signalni demodulyatsiya qilish imkonini beradi, lekin bu bir qator salbiy omillarni keltirib chiqaradi, bu esa oxir-oqibat tarmoqning ishlash radiusiga ta’sir qiladi. “STRIZH” va LoRa (LoRaWAN) LPWAN-protokollarning asosiy xususiyatlari quyida 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

“STRIZH” va LoRa (LoRaWAN) LPWAN protokollarining xususiyatlarini taqqoslash

Xususiyatlari	STRIZH	LoRa
Qurilma kanalining tarmoqli kengligi	100 Gs	125 kGs
Spektr samaradorligi	yuqori	past
Stansiyani qabul qilish sezgirligi	-152 dBm	-132 dBm
Stansiyaning ish rejimi	to‘liq dupleks	Yarim dupleks
Aloqa kanalining maksimal salohiyati	172 dBm	151 dBm
Qo‘shni kanallarda shovqinlardan himoya qilish	65 dB	10-20 dB
Bir dona radio modulning narxi	$4	$17-4(+)
Smart hisoblagichning narxi, 1 dona uchun	$30	$200 dan boshlab

USULLARI

Keng polosali kodlash manipulyatsiyasining asosiy kamchiligi - bu chastota spektridan samarali foydalanishning pastligi. Bu yondashuv ma’lum bir chastota diapazonida ishlay oladigan qurilmalar sonini kamaytiradi.

125 kGs diapazonida, bu diapazon LoRa uchun bitta kanalni kodlash uchun talab qilinadi, tor polosali usul yordamida 1250 ta kanal olish mumkin. Demak, LoRa qurilmasi o‘rniga 1250 ta “Strizh” qurilmasini xususiyatlari yomonlashmasdan ishlatish mumkin.

Katta sezgirlilikni spektr samaradorligini kamaytirish (kengroq chastota polosasi) bilan almashtirish mahalliy qonunchilik va global amaliyotga zid keladi, bu esa chastota resurslaridan oqilona foydalanishni talab qiladi. Kabellar ulanmasidan tashqari bo‘lgan LPWAN-datchiklari, shu jumladan, global miqyosda chastota resurslarini tejash talabini kuchaytiradi. Shu sababli “Strizh” tor polosali modulyatsiya usulini tanladi.

Keng polosali signalni qo‘llashda shovqinlardan himoya faqat kodlash orqali ta’minlanadi. Bir vaqtda bitta kanalda ishlayotgan keng polosali qurilmalar 10 dan 20 dB gacha bo‘lgan shovqin darajasida shovqinlardan himoya qilish imkoniyatiga ega. “Strizh” yordamida ishlatiladigan transiverlar qo‘shni kanaldagi aralashuvlardan 65 dB gacha himoya qiladi - bu LoRa bilan solishtirganda 45 dB farq qiladi. 45 dB haqiqiy sharoitlarda ishonchlilik va aralashuvlarga chidamlilikda katta farq qiladi.

Uzatish vaqti uzun bo‘lganda tizim boshqa qurilmalarning aralashuvlariga sezgir bo‘lib qoladi, bu esa shu polosada ishlayotgan boshqa qurilmalardan. Keng polosali aloqa uchun boshqa qurilmalarning signallari bilan to‘qnashuv ehtimoli keskin oshadi. Bu vaziyatni yaxshilangan kodlash bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Natija - tizimning barqaror ishlash masofasining keskin kamayishi; chekka masofadagi qurilmalar endi “eshitilmaydi”.

“Strizh” tor polosali yondashuvda, qabul qiluvchida signal aniq ajratiladi va 3 baytli preambula yordamida qabul qilinishi mumkin, LoRa signali shovqinlar fonida ko‘rinmaydi. Tegishli signali ajratib olish uchun aniq kodlash sxemasiga moslashish kerak, bu esa foydali ma’lumotlar qabul qilinishidan oldin uzun preambula talab qiladi.

Uzun preambula quvvat manbaiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki foydali ma’lumotlar uzatilishidan oldin katta energiya sarfi bo‘ladi. LoRa qabul qilish stansiyalari IF3 - IF10 kanallarining barcha tezliklarida preambulalarni aniqlay oladi. Biroq, ular bir vaqtda faqat 8 ta paketni demodulyatsiya qila oladilar. Bu arxitektura xususiyatlari tufayli, preambula aniqlanishi, foydali ma’lumotlarni ajratib olish va signalni demodulyatsiya qilish alohida amalga oshiriladi.

XULOSA

Tor polosali modulyatsiya, “Strizh” tizimining ishlash masofasini oshirish uchun ishlatiladi, bu esa chastota resurslaridan iqtisodiy foydalanishni, belgilangan hududlarda habar yetkazib berish ishonchliligini yo‘qotmasdan ko‘lamni kengaytirish imkonini beradi. Bunday yondashuvda uzatish chastotasiga qo‘yiladigan yuqori talablar, zamonaviy kvarts generatorlarining imkoniyatlari bilan qoplanadi.

Keng polosali kodlash usuli taktove generatorining parametrlariga talabchan emas va u ma’lumotlarni katta masofalarga uzatishda qabul qilish sezgirligini oshirish imkonini beradi. Biroq, bu yondashuv spektrni noo‘rin ishlatishga, elektromagnit moslashuvchanlikning yomonlashishiga olib keladi va natijada ma’lum bir radiusda ishlaydigan qurilmalar maksimal sonining kamayishiga sabab bo‘ladi. Radioto‘lqinlarning tarqalish nazariyasi bizga ochiq joyda 20 dBm quvvat 10 barobar uzoq masofaga yoki shaharda qo‘shimcha ikki devorga signal yetkazish imkonini berishini aytadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Яронова Н.В., Шосалманов А.Х., Ходжамов Ш.Ф. Возможности применения на железнодорожном транспорте технологий беспроводной связи // The Scientific Heritage. 2021. № 63-1 (63). – С. 69-72.
2. Ваванов Ю.В. Радиотехнические системы железнодорожного транспорта/ Ю.В. Ваванов, А.В. Елизаренко, А.А. Танцюра и др. – М.: Транспорт, 1991, -303с.
3. Яронова Н. В., Аметова А. А., Шосалманов А. Х. Организация видеонаблюдения на перрездах железнодорожного транспорта //The Scientific Heritage. – 2021. – №. 62-1. – С. 53-56.
4. Связь с подвижными объектами на железнодорожном транспорте. Справочник/ Ю.В. Ваванов, Н.Е. доценко, В.Е. Малявко, С.И. Тропкин. – М.: Транспорт, 1984. -320 с.
5. Роенков Д.Н., Плеханов П.А. Технология MIMO для подвижной связи 5G // Автоматика, связь, информатика. – 2019. – № 8. – С. 21-25.
6. Курбанов Ж. Ф., Колесников И. К., Яронова Н. В. Основы цифровой и интеллектуальной системы железнодорожной связи //The Scientific Heritage. – 2020. – №. 55-1. – С. 26-32.
7. Роенков Д.Н., Яронова Н.В. Квантовые линии связи // Автоматика, связь, информатика. – 2019. – № 9. – С. 23-28.

8. Яронова Н.В., Шосалманов А.Х., Ходжамов Ш.Ф. Возможности применения на железнодорожном транспорте технологий беспроводной связи // The Scientific Heritage. 2021. № 63-1 (63). – С. 69-72.

9. Кнышев И. П., Роенков Д. Н., Сапрыкин Д. В. Надежность каналов в сетях связи с подвижными объектами //Автоматика, связь, информатика. – 2021. – №. 10. – С. 35-38.

10. Роенков Д. Н., Шматченко В. В., Яронова Н. В. Повышение надежности сетей поездной радиосвязи //Автоматика, связь, информатика. – 2017. – №. 7. – С. 22-27.

11. 9. Курбанов Ж. Ф., Колесников И. К., Яронова Н. В. Современная цифровая связь железной дороги //The scientific heritage. – С. 23.

12. 10. Роенков Д. Н., Яронова Н. В. Атмосферные оптические линии связи //Автоматика, связь, информатика. – 2016. – №. 11. – С. 7-10.

13. 11. Колесников, И. К., А. А. Халиков, и Н. В. Яронова. "Влияние электромагнитного поля на свойства жидких и твердых тел." *Наука. Образование. Техника* 4 (2007): 104.

14. О перспективах сети GSM-R для цифровой железной дороги / М.А. Шнепс-шнеппе // international journal of open information technologies. №12, 2016. – С. 47-49.

КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИЯ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ

Муаззамхон Шаисламова Рахимходжаевна
Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети “Менежмент ва маркетинг” кафедраси катта ўқитувчиси
muazzam1981@mail.ru

Аннотация: Ушбу мақолада корхоналарда инновацион фаолиятнинг ташкил этилиши ва инновациялар ҳақида ёритилган.

Иқтисодий ривожланишнинг ҳозирги босқичида корхонанинг инновацион фаолиятини бошқаришни такомиллаштириш тобора муҳим аҳамият касб этмоқда ва бу корхонанинг рақобатбардошлигини оширишга ёрдам беради. Корхоналар инновацион фаолияти самарадорлигини оширишда мавжуд муаммоларнинг долзарблиги ва уларнинг амалий аҳамияти, шунингдек, корхоналарга нисбатан бу масалалар бўйича ишланмаларнинг йўқлиги, ушбу мақоланинг мавзуси, унинг тузилиши ва кўламини нақадар долзарб эканлигини кўрсатади. Танланган мавзу замонавий корхоналар инновацион фаолиятида ҳал қилиниши керак бўлган муҳим ва долзарб вазифага бағишланган.

Калит сўзлар: Инновацион фаолият, самарадорлик, инновация, инновацион жараён, рақобатбардош, рақамли иқтисодиёт, ишлаб чиқариш омиллари, инновацион стратегия, инновацион тадбиркорлик.

Abstract: In this article, we will tell you how to create an innovative enterprise.

Economic development at present, well-established innovative entrepreneurship during modernization is important for the development of the profession and helps competing entrepreneurship. The innovative activity of the enterprise to increase efficiency includes the design of dolzarbliga and increasing practical significance, shuningdeck, design of the mining industry, case study, design of educational institutions and kelamines in the Dolzarbian economy. Solving the current topic of innovative activity of the enterprise is the most important and most important task.

Keywords: Innovative activity, efficiency, innovation, innovation process, competitive, digital economy, factors of production, innovative strategy, innovative entrepreneurship.

Кириш

Ўзбекистон иқтисодиёти ривожланишининг ҳозирги босқичида инновацион фаолият ва инновациялар тараққиёт ва иқтисодий ўсишнинг асосий омилига айланмоқда. Инновациялар хўжалик юритиш субъектларини модернизациялашга, уларнинг рақобатбардошлигини ошириб, замон талабларига жавоб берадиган маҳсулот ва хизматларни ишлаб чиқаришига имконият яратади. Жаҳон иқтисодиётида ўзининг муносиб ўрнини эгалашга интилаётган Республикамизда инновацион фаолиятни ривожлантириш, халқаро тажрибага таянган ҳолда унинг асосий тамоилларини ўрганиб, корхоналарнинг кундалик фаолиятида кенг ва асосли равишда қўллаш давр талабидир.

Корхоналарда инновация ва инновацион фаолиятни тадқиқ қилишдан аввал “инновация” ва “инновацион фаолият” атамаларининг келиб чиқиши ва уларнинг замонавий талқинини беришдан бошлашни мақсадга мувофиқ деб ҳисобладик.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Иқтисодий категория сифатида “инновация” тушунчаси биринчи марта Й.Шумпетер томонидан 1912 йилда «Иқтисодий ривожланиш назарияси» асарида таклиф этилган [3]. Шумпетер инновациянинг беш хил кўринишини таклиф этган:

• истеъмолчиларга номаълум бўлган янги маҳсулотни ёки янги турдаги маҳсулотни (истеъмолчилар учун янгилик) жорий этиш;

• янги ишлаб чиқариш усулини жорий этиш;

• илгари кириб борилмаган янги бозорни очиш;

• янги хом ашё манбасини топиш;

• соҳада (ташкилотда) янги ташкилий тузилмани жорий этиш.

Шумпетернинг ишларидан бугунгача ўтган даврда жуда кўп хорижий ва махаллий олим ва тадқиқотчилар томонидан бу атамаларга берилган таърифлар 1.1-жадвалда келтирилган. Жумладан, Ўзбекистон Республикасининг 2020 йилнинг 7 апрелида қабул қилинган “Инновацион фаолият тўғрисида”ги қонунда “Инновация” – фуқаролик муомаласига киритилган ёки шахсий эҳтиёжлар учун фодаланиладиган, қўлланилиши амалиётда катта ижтимоий-иқтисодий самарага эришишни таъминлайдиган янги ишланмадир[4] деб кўрсатилган.

1.1-Жадвал. Инновация тушунчасига хорижий ва маҳаллий олимларнинг келтирган таърифлари [3]

№	Муаллифлар	Келтирилган таърифлар
1.	Й.Шумпетер	инновация бу тадбиркорлик руҳи билан рағбатлантирилган ишлаб чиқариш омилларининг янги комбинацияси[5].
2.	В.И. Павлюченко	инновация бу натижада ёки илмий, амалий ва ташкилий ишнинг дастлабки натижасидир [6]
3.	Б. Санто	инновация бу ғоялар ва ишланмалардан амалий фойдаланиш орқали энг яхши маҳсулот ёки технологияни яратишга имкон берадиган ижтимоий, техник ва иқтисодий жараён деб таърифлади[7].
4.	К.Р. Макконнелл, С.Л. Брю	инновация (ёки инновациялар) – бу янги маҳсулотни ишлаб чиқариш, янги ишлаб чиқариш технологиясидан ёки бизнесни ташкил этишнинг янги шаклидан фойдаланиш демакдир деб таърифлашган [8].
5.	Ф. Котлер	инновациялар ташкилотларнинг бозор асослари нуқтаи назаридан оммавий ишлаб чиқаришга мўлжалланган ва бозорга тақдим этиладиган, шунингдек истеъмолчи томонидан бутунлай янги ёки ноёб хусусиятларга эга бўлган ғоя, маҳсулот ёки технология сифатида талқин қилади[9].
6.	Б.Твисс	инновацияларни ихтиро ёки ғоя иқтисодий таркибга эга бўлиш жараёни деб таърифлайди [10].
7.	Ф. Никсон	инновация бу такомиллаштирилган жараёнлар ва маҳсулотлар бозорида пайдо бўлишига олиб келадиган чора-тадбирлар (техник, ишлаб чиқариш ва тижорат) мажмуисидир[11].

8.	В.Х. Трибушная	Олимнинг фикрига кўра, инновация уч жиҳатдан кўриб чиқилиши лозим[12]: - ҳар қандай жараённинг қўлланилиш соҳасидан қатъи назар, самарадорлигини ошириш учун илм-фан, техника ва ижодкорликнинг сўнгги ютуқларини амалда қўллашда ифодаланган интеллектуал фаолиятнинг якуний натижаси сифатида; - фаолиятнинг турли соҳаларидаги янгиликлар орқали сотиладиган маҳсулотнинг махсус тури сифатида. Шу нуқтаи назардан, инновациялар товар маҳсулотларига хос бўлган қонунлар – талаб, таклиф, рақобат ва бошқаларга буйсинади; - жамиятнинг янгиликка бўлган муносабатини, белгиланган асосларнинг ўзгаришини, ривожланишнинг бир босқичидан бошқасига ўтишини сезиларли даражада белгилайдиган ижтимоий ҳодиса сифатида.
9.	М.Додгсон	“инновация илмий, технологик, ташкилий ва молиявий фаолиятдан иборат бўлиб, янги (ёки яхшиланган) маҳсулот, янги (ёки яхшиланган) ишлаб чиқариш жараёни ёки қурилмалар тижоратига олиб келади.
10.	Ф.Янсен	“инновация бу янги нарсани тижоратлаштиришдир”. Энг муҳим янгилик бу янги бизнес, аммо у бошланғич янгилик ва кейинги инновацион тўлқин ёки “инновацион майдон”га асосланган бизнес ғояни ўз ичига олади[13].
11.	Л.Водачек, О.Водачкова	инновация бу тизим сифатида корхона фаолиятининг мақсадли ўзгариши[14].
12.	Ю.В. Яковец	инновация – бу “ишлаб чиқаришдаги сифат

		ўзгаришлари” ҳисобланади[15].
13.	А.И. Пригожий	инновация “...мақсадли ўзгариш сифатида амалга ошириш муҳитига (ташкилот, аҳоли, жамият ва бошқалар) янги нисбатан барқарор элементларни киритади. Инновация. Жараёни, яъни қандайдир тизимнинг бир ҳолатдан иккинчисига ўтиши демакдир”[16].
14.	А.В. Гугелев	“Инновация – бу бошқарув тизимининг субъекти томонидан мураккаб тизимда амалга ошириладиган мақсадли ўзгаришлар мажмуасидир”[17].
15.	А.С. Барютин	“Инновацияни табиатда мураккаб бўлган ва маълум бир ижтимоий эҳтиёжларни қондирадиган тубдан янги ёки ўзгартирилган амалий воситаларни (инновацияларни) яратиш, тарқатиш ва улардан фойдаланиш учун мавжуд тизимлар ва тузилмаларга ҳар хил ўзгаришларни киритишдан иборат керакли ва иқтисодий, техник ва ижтимоий самарани беради бошқариладиган жараён” деб тушунади[18].
16.	Ш.Тацуно	инновация “Охир -оқибатда фойданинг ошишига ёки хизматнинг яхшиланишига олиб келадиган ғояни қўллашни англатади”[19].
17.	Р.Д. Дусмуратов	Инновация ижодий-интеллектуал фаолиятнинг якуний натижаси бўлиб, янги ёки такомиллашган маҳсулот кўринишида мужассамлашади ва бозорда сотишга мўлжалланади ёхуд амалий фаолиятда фойдаланиладиган янги ёки такомиллашган технологик жараён ҳисобланади[20].
18.	Н.Қ. Йўлдошев	Инновация – бу инноваторни рақобатчиларга нисбатан устунликка эриштирадиган товар ёки хизматни лойиҳалаштириш, ишлаб чиқариш, сотиш, сотувдан кейинги хизмат кўрсатишга янгича

		ёндашув демакдир. Инновация – ишлаб чиқариш, маҳсулотлар, хизматлар, бошқарувда ижобий сифат ўзгаришларини яратиш лозим[21].
19.	Р.И.Гимуш, Ф.М.Матмуродов	“инновация – бу янгиликдир ва уни қайсидир соҳада қўлланилишидир”[22].
20.	Ш.Д. Эргашходжаева	“Инновациялар жамият ривожланиши асосий қонунларини амалга оширишнинг зарурий элементи, унинг ривожланиш ва динамиклик шарти ҳисобланади. Жамиятда ташкилотларнинг ривожланиши улар фаолиятининг барча жабҳаларига дахлдор бўладиган хилма-хил инновацияларни ўзлаштириш йўли билан рўй беради”[23].
21.	А.Норов	«инновация – ишлаб чиқаришнинг технологик асосларини тубдан модернизациялаш натижасини акс эттиради ва янгилик бўлганлиги туфайли, биринчидан, маълум бир иқтисодий субъектнинг юқори даражадаги ноаниқлиги, иккинчидан, унинг ҳаётий цикли давомида узоқ муддатли самараси билан тавсифланади, яъни инновацион жараённинг узлуксизлиги ҳисобга олинади. Бундан келиб чиқадики, инновация ўзига хослик ва доимийликни уйғунлаштиради»[24]

1.1-Жадвалдан кўриниб турибдики, олимлар томонидан “инновация” тушунчасининг ўзига хос умумий жиҳатлари ажратиб кўрсатилган.

Илмий адабиётларда мавжуд бўлган “инновация” тушунчаси таърифларини ўрганиб ва илмий ишимиз мавзусидан келиб чиққан холда тадқиқотимиз давомида фойдаланиш учун қуйидаги таърифни қабул қиламиз: “Инновация бу корхоналар фаолиятида сифат жиҳатдан янги истеъмол хусусиятларига эга бўлган маълум бир маҳсулот (хизмат)ни ишлаб чиқариш (яратиш) имконини берадиган ишланмадир”.


Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик палатаси томонидан 2020 йил 7 апрелда қабул қилинган, Сенат томонидан 2020 йил 19 июнда маъқулланган “Инновацион фаолият” тўғрисидаги қонуннинг 18-моддасида инновацияларнинг қуйидаги турлари келтирилган:

маҳсулотга оид инновациялар — техник ва технологик жиҳатдан янги ёки такомиллаштирилган маҳсулотни (ишларни ва хизматларни) ишлаб чиқишга ҳамда жорий этишга қаратилган инновациялар;

жараёнга оид инновациялар — техник ва технологик жиҳатдан янги ёки такомиллаштирилган ишлаб чиқариш ёхуд таълим усулларини ишлаб чиқиш ва жорий этишга, шунингдек технологиялар трансферини амалга оширишга қаратилган инновациялар;

маркетингга оид инновациялар — маҳсулотларнинг дизайни ва қадоқларидаги ўзгаришларни қамраб олувчи янги ёки такомиллаштирилган усулларни жорий этишга, маҳсулотни (ишларни ва хизматларни) сотиш ва тақдим этишнинг янги усулларидан фойдаланишга, янги нархлаш стратегияларини шакллантиришга қаратилган инновациялар;

ташкилий инновациялар — бизнесни ташкил этиш ва юритиш, иш ўринларини ташкил этиш ва ташқи алоқаларни йўлга қўйишнинг янги ёки такомиллаштирилган усулларини жорий этишга қаратилган инновациялар.




1.1-Расм. Инновация турлари (Қонун моддасида келтирилган маълумотларга асосан муалиф томонидан ишлаб чиқилди**)**

Инновацияни яратиш, ўзлаштириш ва тадбиқ этиш жараёни инновацион фаолият деб аталади.

Корхонанинг инновацион фаолияти корхонанинг умумий мақсадларига эришишга қаратилган бўлиб, қуйидагилардан иборат бўлади:

1. Янги маҳсулот ёки хизмат турларини ишлаб чиқиш ва тадбиқ этиш.
2. Ишлаб чиқарилаётган маҳсулот ёки хизматларни такомиллаштириш.
3. Корхонадаги анъанавий махсулот ёки хизматларни ишлаб чиқариш жараёнини такомиллаштириш ва ривожлантириш.
4. Корхона фаолияти самарадорлигини ва рақобатбардошлигини янада ошириш учун шароит яратиш.



1.2-Расм. Инновацион жараён. (Муаллиф томонидан шакллантирилган**)**

Инновацион фаолият борасида бир қанча хориж олимлари томонидан келтирилган таърифлар қуйидаги 1.2-жадвалда акс этган.

1.2-Жадвал

Инновацион фаолият тушунчасига хориж олимлари томонидан келтирилган таърифлар (Муаллиф томонидан шакллантирилган**)**

№	Муаллифлар	Келтирилган таърифлар
1.	П. Друкер	инновацион фаолият - бу тадбиркорга ўзгаришлардан фойдаланиб, уни янги имкониятларга айлантиришга имкон берадиган, масалан, янги бизнесни бошлаш

		ёки янги хизматларни кўрсатиш учун имкон берадиган махсус воситадир.
2.	Й.Шумпетер	инновацияларни жорий қилиш жараёнини бир текис давом этмаслигини, кўтарилиш ва пасайишлар билан ажралиб туришини исботлади. Битта инновацион тадбиркор технологик ва молиявий чекловларни енгиб, даромад олишнинг янги усулларини кашф этиши билан, бошқалар дарҳол унга эргашадилар.
3.	Д.А.Ришков	инновацион фаолиятнинг ривожланиши - бу янги технологияларга оид билимларни моддийлаштириш орқали янги ҳолатга ўтиш жараёни, шунингдек, уларнинг ресурс салоҳиятини сифатини ошириш ва рақобатдош устунликларини кенгайтириш мақсадида инновацион инфратузилма объектларининг ўзаро боғлиқликларининг барқарор тизимини шакллантириш жараёни деб ҳисоблаш керак.
4.	И.В. Роздолская	инновацион фаолиятнинг ривожланиши, тизимда содир бўлаётган ва ривожланиш мақсадларига эришиш учун инновацион имкониятларни мустаҳкамлашга ва улардан фойдаланишга қаратилган ўзгаришларнинг комплексини ифодаловчи турли жараёнларнинг комбинацияси сифатида таърифлайди.
5.	М.Е. Касс	инновацион фаолиятнинг ривожланиши “... инновацияларни амалда қўллаш орқали ўз хусусиятларига кўра товарларни (маҳсулотларни, хизматларни) ва технологияларни яратишга олиб келадиган иқтисодий жараён” деб талқин қилади.
6.	Д.И. Кокурин.	Инновацион фаолият - бу инновация ва инновацион жараён тушунчалари мажмуасидир.

Tadqiqot metodologiyasi

Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра инновацион фаолиятнинг ривожланиши маҳсулот ва жараён янгиликларини жорий этиш орқали бозор имкониятларини кенгайтириш билан корхонанинг сифат хусусиятларини ўзгариши деб ҳисоблаш керак. Шу ўринда назарий тадқиқотлар ва таҳлил натижаларидан умумий хулоса чиқарган ҳолда, бизнинг фикримизча, Инновацион фаолият -бу янги эришилган илмий техник натижаларни, янги, илгари бўлмаган махсулот ёки хизмат турларини яратиш ва бозорга чиқариш, янги такомилаштирилган технологик жараёнларни амалиётда қўллаш ва шулар билан боғлиқ қўшимча илмий-техник тадқиқотлар жараёнидир. Яъни бу турли инновацион ишланмаларни яратиш ва ишлаб чиқаришга тадбиқ этишдан иборат узулуксиз жараёндир. Демак, юқорида келтирилган таърифлар, изоҳларга асосланиб инновацион фаолият бу - янги ишланма ва ихтироларни яратиш ва уларни, янги маҳсулот ёки хизматларни, ишлаб чиқаришга тадбиқ этиш жараёни деб хулоса қиламиз.

Тўпланган маълумотлар асосида кузатиш ва иқтисодий таҳлилни қиёслаш, тизимли ёндашув ҳамда мантиқий ёндашув каби услублардан самарали фойдаланилди. Мақолада илмий абстракциялаш, таҳлил ва синтез, тадқиқот ишига оид қарашларни, фикрларни таҳлил қилишда индуксия ва дедуксия усуллари кенг қўлланилди.

Ушбу тадқиқот маълумотлари расмий манбалардан олиниб, таниқли иқтисодчи олимларнинг иқтисодиётни ривожлантиришда инновацияларнинг роли бўйича илмийназарий қарашларини қиёсий таҳлил қилиш, хориж тажрибаларини умумлаштириш ва мамлакатимизда эришилаётган ютуқлар бўйича олинган натижаларга таянган ҳолда инновацион тадбиркорликни ўрганишга эришилди.

Tahlil va natijalar

Корхонанинг инновацион фаолияти, яъни янги маҳсулотларни яратиш, янги технологияларни ишлаб чиқиб уни тадбиқ этиш, молиявий, тижорий, бошқарувда янги ёндашувлардан фойдаланиш каби фаолияти, унинг илмий, илмий - техник ютуқларни идрок этиш ва улардан фойдаланиш қобилиятига чамбарчас боғлиқ бўлади. Корхонанинг инновацион фаолияти бу тўпланган илмий, илмий-техник ва интеллектуал салоҳиятни маҳаллий ва халқаро миқёсда идрок этиш ва ишлатиш қобилияти билан тавсифланади.

Аксарият корхоналарнинг инновацион фаолияти бир нечта умумий босқичлардан иборат бўлиб, уларни қуйидаги кетма кетликда ифодалаш мумкин.

1. Корхона ривожланиш стратегиясини шакллантириш ёки қайта кўриб чиқиш.
2. Инновациянинг долзарб йўналишини аниқлаш ва унинг стратегиясини танлаш.
3. Янги ғоялар ёки маҳсулотлар ва жараёнлар учун ишлаб чиқариш мезонларини аниқлаш.
4. Ғоялар ва уларнинг таҳлили.
5. Ғояларни Лойихалар шаклига келтириш ва уларни, технологик, молиявий ва маркетинг жихатларини тахлил қилиш.
6. Янги маҳсулот, жараён ёки хизматни ишлаб чиқиш (яратиш); бу жараён илмий тадқиқотлар, маҳсулотни синов нусхаларини яратиш ва синовдан ўтказиш каби ишларни назарда тутади.
7. Маҳсулотни ишлаб чиқаришга тайёрлаш, таъминот ва сотувга чиқариш каналларини тайёрлаш.
8. Инновацияни тижоратлаштириш.

Корхонанинг соҳаси, молиявий имкониятлари, фаолият кўрсатаётган бозори каби омиллар таъсирида бу босқичлардан баъзилари амалиётда қўлланилмаслиги ҳам мумкин. Телекоммуникация соҳасида алоқа хизматларини кўрсатиш йўналлишидаги корхоналарнинг катта кичиклигига, молиявий имкониятларига қараб, илмий тадқиқотлар босқичи корхона миқиёсида бажарилмаслиги мумкин. Бундай ҳолатда корхона илмий тадқиқот натижаларини махсус илмий тадқиқотлар билан шуғулланувчи ташкилотлардан сотиб олиши ёки илғор корхоналар тажрибасидан фойдаланиши мумкин.

Бошқача қилиб айтганда, инновацион фалиятнинг *моҳияти* – маҳсулотлар, технологиялар, хизмат кўрсатиш ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш соҳасида янги ғояларни излаш ва ғоядан янги маҳсулотгача бўлган, *юқорида келтирилган жараённи босқичма босқич* ташкил этишдир.

Қуйидаги чора -тадбирлар иқтисодиётда бу мақсадга хизмат қилади:

- янгиликларга бўлган эҳтиёжни яратадиган ва уларни рақобат асосида қабул қила оладиган тадбиркорлик муҳитини ривожлантириш;
- интеллектуал ижод маҳсули сифатида янгиликларнинг доимий келишини таъминлайдиган, кейинчалик ишлаб чиқаришга жорий этиладиган илмий -тадқиқот ташкилотларини яратиш ва қўллаб -қувватлаш;
- илмий-ижодий кадрлар тайёрлашни, уларни молиялаштиришни, моддий -техник таъминлашни ва моддий рағбатлантиришни ташкил этиш;
- инновацион жараёнларни ривожлантириш учун таянч бўла оладиган устувор илмий тадқиқотларни бюджетдан молиялаштириш.

Илм-фан ва технология соҳасида, одатда, ғоянинг пайдо бўлишидан, унинг янги маҳсулотга тадбиқ этилиши, ишлаб чиқаришдан эскириб кетгунига қадар ўтган вақт инновациянинг ҳаётий цикли деб аталади. Маҳсулотнинг ҳаётий цикли янги ускуналарни ишлаб чиқаришга илмий -техник тайёргарлик, уни ишлаб чиқариш, ишлатиш ва утилизация қилиш каби босқичларни ўз ичига олади. Маҳсулот ишлаб чиқаришни техник ва технологик жиҳатдан ўз вақтида янгилаб туриш учун янги технологиянинг ҳаётий цикли таҳлил қилинади.

Корхоналарнинг инновацион фаолиятини назарий асосларини қисқача кўриб чиқамиз:

1. Инновациялар ва инновацион фаолият ҳар бир корхонанинг муваффақиятли ривожланишини, бозордаги рақобатбардошлигини ва молиявий барқарорлигини таъминловчи асосий омиллардан биридир.
Demak, o`qituvchi pedagogik mahoratining asosiysi o`z ustida mustaqil o`qishidir. O`zbekiston mustaqillika erishgandan keyin ta`lim-tarbiya sohasida, milliy axloq–odobni qayta tiklash borasida, milliy urf–odatlar ana`nalarni joy-joyiga qo`yish milliy qadiriyatlarni yanada rivojlantirish xususida buyuk burilishlar bo`lgani barchaga ayon. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilim va pokiza odob-axloqli qalb egasi bo`lishida ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.

Pedagoglik sharafli, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi bo`lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o`zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o`qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g`oyalar bayon etiladi, yosh individual xususiyatlarini e`tiborga olish ta`kidlanadi.

Avvalo o`qituvchining kasbiy mahoratiga ta`rif beraylik.[15] O`qituvchining kasbiy mahorati – bu ma`lum shaxsiy (bolalarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi va h.k.) fazilatlarining yig`indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, usulubiy tayyorgarligida, bolalarni tarbiyalashning optimal yo`llarini izlab topishida namoyon bo`ladi. Shuning uchun o`qituvchining kasbiy mahorati, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni taqozo qiladi. Murabbiyning faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi? Bo`lajak o`qituvchi avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo`lishi lozim. Bu deganimiz milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an`analarni bilishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib, tarbiyalanuvchilarda ota-bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo murabbiyning o`zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmatli va e`tiqodli bo`la olishi darkor. Ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-axloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash tarbiyalanuvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari yana ba`zi adabiyotlarda pedagogik mahorat tushunchasi o`qituvchida bo`lishi lozim bo`lgan bir qancha shaxsiy sifatlar majmuasi sifatida yoritiladi. Bu shaxsiy sifatlar kasbiy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishga imkon beradi. SHunday muhim sifatlarga tarbiyachi faoliyatining insonparvarligi, uning kasbiy bilimi, pedagogik qobiliyatlari va pedagogik teknikasini kiritish mumkin. Pedagog uchun korreksiyalangan barcha turdagi yo`nalishlar bilan yo`g`rilgan, maqsadga olib boruvchi asosiy yo`nalish, ya`ni faoliyatni insonparvarlashtirish muhimroqdir. Lekin faqat kelajak oldidagi mas`uliyatni his etish, ongli tirishqoqlik, bolalarga nisbatan cheksiz muhabbat orqaligina tarbiyachining kasbiy mahorati shakllanadi. “Agar tarbiyachi ham ishiga, ham bolalarga nisbatan muhabbatni o`zida mujasamlashtira olsa uning mukammaligi xuddi-ki kamalak misoli yaqqol ko`zga tashlanadi”, - degan edi L.N.Tolstoy.

[15] Ko‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O ‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.

Birinchidan, pedagogik mahorat shaxs ruhiyatidagi o`z–o`zini tashkil etuvchi tizim bo`lib, insonparvar yo`nalganlik bu tizimning asosiy omili bo`lib xizmat qiladi;

Ikkinchidan kasbiy mahoratni rivojlantirish zamirida (asosida) o`qituvchi hatti–haraktalarining asl mohiyati asoslanganligi, ongliligini belgilaydigan kasbiy bilim yotadi. Yo`nalganlik va kasbiy bilim professional yuqori darajadagi faoliyatning "skelet"i sanalanadi, u o`z–o`zini tashkil etuvchi tizimning yaxlitligini ta`minlaydi;

Uchinchidan, pedagogik qobiliyatlar mahoratning shakllanishini tezlashtiradigan asosiy me`zon sanaladi.

To`rtinchidan, bilim va qobiliyatga tayanadigan pedagogik texnika, u barcha ta`sir vositalarini maqsad bilan bog`lashga xizmat qiladi, shuningdek, pedagogik faoliyat strukturasini muvofiqlashtiradi.

Yuqorida qayd etib o`tilgan va pedagogik mahoratga berilgan ta`rif, hamda - tarbiyachining professiogrammasi xususiyatlari va pedagoglarga qo`yiladigan ijtimoiy–iqtisodiy, siyosiy-madaniy talablardan kelib chiqib pedagogika nazariyasida pedagogik mahorat quyidagi asosiy komponent (tarkibiy qism)lardan iborat.



Bularning barchasi xususiy mohiyat-mazmun kasb etsada, ular yaxlit holda-tarbiyachi (pedagog)ning kasbiy malakalarining mazmunini ifodalaydi. Zero, pedagogik texnika–o`qitish, ta`sir ko`rsatish, ta`lim tarbiya oluvchilarga o`z his-tuyg`ulari, bilimlari, axloqiy fazilatlarini uzatish texnologiyasini ifodalasa, pedagogik muomala–kasbiy faolligining bir ko`rinishi bo`lib, ta`lim-tarbiyada shu jarayon ishtirokchilarining o`zaro ta`sir va hamkorligini aks ettiradi.


Pedagogik ijod–pedagogning mahorat pillapoyalaridan ko`tarilishida yaratuvchanlikni, tashabbuskorlikni, pedagogik uddaburonlikni va tadbirkorlikka eltuvchi yo`lni, bu yo`ldagi qiyinchiliklardan qo`rqmaslikni anglatadi.

O`z navbatida bu sohada pedagogning pedagogik qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u pedagogik jarayonda pedagogning aqliy, emotsional–irodaviy jihatlarini, tashkilotchiligini, bilimdonligini va ularning bir-biriga bog`liqligini hamda yaxlit bir butunlik kasb etishini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat – o`qituvchilik burchi, mas`uliyati, qadr-qimmati, vijdoni, axloqiy e`tiqodini nazarda tutib, pedagogning talabchanligi, adolati, komilligi, rostgo`yligi, to`g`riligini anglatadi.

Pedagogik mahorat tizimida pedagogik nazokat (takt)–pedagogning pedagogik maqsadga muvofiq, foydali, qimmatli harakatlarining o`lchovi, me`yori va ta`sir vositasining chegarasi sifatida xarakterlanadi. Pedagogik mahoratning qayd qilingan tarkibiy qismlari pedagogning kasbiy xususiyatlarini boyitadi va uni mohirlik sari yetaklaydi, o`qituvchida pedagogik mahorat malakalarining tarkib topishiga yordam beradi. Ammo, o`z kasbining mohir ustozi bo`lish uchun faqatgina ularga tayanib, ish tutish kutilgan natijani bermasligi mumkin. Buning uchun muntazam ravishda pedagogik fikrlash, pedagogik o`ylash, pedagogik ish tutish lozim bo`ladi. Bu deganimiz, o`z faoliyatini pedagogik hodisalarni, vaziyatlarni tahlil qilish, ularning har bir bog`lanish joylarini anglashga intilish, kunlik natijalarni mustaqil ravishda tahlil qilishi va yangi ta`lim-tarbiyaga doir g`oyalarni avvalgilari bilan taqqoslay olishga odatlanishi ham lozim bo`ladi. Asosiy pedagogik-psixologik muammolarni topa olish ularni hal etishning eng qulay yo`llarini topish ustida o`ylash ham kerak.

“Kompetentlik” tushunchasi ta`lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan`anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o`zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o`zaro munosabatlarda yangi yo`l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to`la ma`lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.



Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo`llay olinishidir.

Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko`rsatish ko`nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

Maxsus kompetentlik–kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyat natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo`lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko`zga tashlanadi. Ular o`zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Psixologik kompetentlik–pedagogik jarayonda sog`lom psixologik muhitni yarata olish, bolalar va ta`lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o`z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

Metodik kompetentlik– pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta`lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to`g`ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo`llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo`llash;

Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma`lumotlarni izlash, yig`ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o`rinli, samarali foydalanish;

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o`zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

Innovatsion kompetentlik–pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta`lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g`oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

Kommunikativ kompetentlik – ta`lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, bolalar bilan samimiy muloqotda bo`lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta`sir ko`rsata olish.

Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o`sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o`z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg`or texnologiyalarni o`zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to`g`ri harakatlanish malakasiga egalik.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo`lishda o`z ustida ishlash, o`z-o`zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O`z-o`zini rivojlantirish vazifalari o`zini o`zi tahlil qilish va o`zini o`zi baholash orqali aniqlanadi. O`z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o`zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo`lida amaliy harakatlarni tashkil etishi shular jumlasidandir.

O`qituvchining o`z ustida ishlashi quyidagilarda ko`rinadi:

kasbiy BKMni takomillashtirib borish;

faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;

kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;

ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;

salbiy odatlarni bartaraf etib boorish, ijobiy sifatlarni o`zlashtirish. Pedagogning mutaxassis sifatida:

aniq maqsadga intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

-pedagogik jarayon samaradorligini, o`zining ishchanlik faolligini oshirish;

-izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o`zlashtirish;

-ilg`or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo`lish;

-faoliyatiga fan-texnikaning so`nggi yangiliklarini samarali tatbiq etish;

kasbiy ko`nikma va malakalarini takomillashtirish; [16]

salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo`lida olib boradigan amaliy harakati uning o`z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o`z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo`l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir.

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo`lishida o`zini tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi. O`zini o`zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etilayotgan o`z amaliy harakatlari mohiyatining o`rganilishidir.

XULOSA

Pedagogning kasbiy mahorati o‘qituvchi kompetensiyalari bilan o`zaro uyg`unlashib, bir butunlikni hosil qiladi-ki, natijada bu ikki asosiy omil pedagogning o`z faoliyati jarayonidagi ijobiy o`zgarishlar, barqaror ko`rsatkichlarning yuzaga kelishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyatlar:

1. Umirovich K. A. et al. O‘QITUVCHI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINING PSIXOLOGIK TAHLILI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 77-79.

2. Ko‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O ‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.

3. A. Abduqodirov, R. Ishmuhammedov. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar” T.: 2008. – 128 b.

4. Aleksey N. Fatenkov, & Andrey A. Davydov (2023). Philosophy: An Apologetic Etude. Гуманитарный вектор, 18 (2), 68-76. doi: 10.21209/1996-7853-2023-18-2-68-76 (https://cyberleninka.ru/article/n/philosophy-an-apologetic-etude)

1. Aminov N.A. Bo’lajak maktab o’quvchilarining maxsus qobiliyatlari tarkibiy qismlari haqida Psixologik jurnal. – № 5. –1992. – 104–110-betlar

2. B.O.Turaev “Bizning faylasuf ustoz” tanlangan asarlar: to’rtinchi jild Samarqand -Toshkent: «Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi» nashriyoti,

[16] Umirovich K. A. et al. O‘QITUVCHI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINING PSIXOLOGIK TAHLILI //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 77-79.

2021, 255-b

3. Chaudhuri, B. (2015). Science in society: challenges and opportunities for indigenous knowledge in the present-day context. Global Bioethics, 26(2), 78–85. https://doi.org/10.1080/11287462.2015.1037140

4. Djurinskiy A.N. Педагогика: история педагогических идей. – М.: Педагогическое общество России, 2000.

5. Fursova, E. F. (2015). Organization of ethnoecological systems by the East Slavic settlers in the south of Western Siberia. Global Bioethics, 26(2), 171–175. https://doi.org/10.1080/11287462.2015.1039814

6. G.Jalolova “Bolalarni maktabga tayyorlashda noan’anaviy o‘yinlardan foydalanish”. T.: 2007.

7. International and Multidisciplinary Journal of Social Sciences Volume 13, Issue 1, 28th March, 2024, Pages 1 – 18 ©The Author(s) 2024 http://dx.doi.org/10.17583/rimcis.11677 Together, but Alone: A Thematic Analysis of the Athletes’ and Their Partners Experience of Physical Separation in Romantic Relationships Daria Waligórska, Monika Frydrychowicz, Katarzyna Adamczyk, Wojciech Rogowski, & Dominika Ochnik

8. Joyce, B., Calhoun, E. and Hopkins, D. (2002) Models of learning: tools for teaching. Open University Press; Reynolds, D. and Muijs, D. (2001) Effective teaching: evidence and practice. Sage (Paul Chapman);

TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMMOLAR

Nafisa Buranova Ziyodullayevna
Namangan davlat chet tillar instituti nemis va fransuz tillar kafedrasi stajyor - o`qituvchisi

Annotatsiya. Maqolamizda tarjima jarayonida duch keladigan muammolar shunigdek o‘zaro yaqin tillar orasidagi muammolarni yoritib berishga qaratilgan bo‘lib, soxta ekvivalentlar va ularni tarjimada berish muammolarini ochib berish o‘zaro yaqin tillar orasida ketma-ket tarjima muammolarining dolzarbligini talab qiladi.

Kalit so‘z: tarjima muammolari, tarjimon, tarjima usullari, izohli tarjima, matn, termin.

Annotation. In our article, the problems encountered in the process of translation are aimed at highlighting the problems between closely related languages, and revealing the problems of false equivalents and their translation requires the relevance of successive translation problems between closely related languages.

Keywords: translation problems, translator, translation methods, interpretive translation, text, term.

Аннотация. В нашей статье проблемы, возникающие в процессе перевода, направлены на освещение проблем между близкородственными языками, а выявление проблем ложных эквивалентов и их перевода требует актуальности проблем последовательного перевода между близкородственными языками.

Ключевые слова: проблемы перевода, переводчик, методы перевода, интерпретационный перевод, текст, термин.

Tarjima tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak u juda qadim tarixga ega bo‘lishiga qaramay Tarjimashunoslik faninig oltin davri deb XX asrni e’tirof qilsak bo‘ladi. Ushbu asr nafaqat Tarjimashunoslik nazariyasi balki ilm –fan, texnologiya rivojining ham yuksak darajaga olib chiqdi desak mubolag‘a bo‘maydi. Aynan shu sohalarning rivoji, ishlab chiqarishning yuqori marralarga erishishi eksport va import salohiyatini yuqorilashi, diplomatik aloqalar mustahkamlanishi tarjimashunoslikning sinxron va ketma-ket turlarini yanada ommalashuviga olib keldi. Bu sohalarning rivojlanishi o‘z o‘zidan tilshunos olimlarni tarjimashunoslik faniga e’tiborini qaratdi va ko‘plab izlanishlar olib borilishini taqazo etdi.Ko‘plab ilmiy ishlar qilinishiga qaramasdan Tarjimashunoslik nazariyasi hali to‘liq o‘rganilmagan sohalar qatoriga kiritilgan.

Zamonnning rivojlnishi Tarjimaning rivojlanishini taqazo etarkanturli olimlar tarafidan bir nechta tasniflashlar taklif qilindi. Tarjimashunoslar tarafidan berilgan tasniflardan biz ilmiy izlanishlarimiz jarayonida V.N.Kommisarov tarafidan ishlab chiqarilgan klassifikatsiyasiga e'tiborimizga qaratamiz[1]. Ushbu izlanishlar jarayonida rus olimlari bergan quyigagi fikr o'zini hali hamon oqlamoqda ya'ni "ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu mukammal tajimon degani emas"[2] darhaqiqat ikki tilni mukammal egasi bo'lish bu o'sha tilga oid bo'lgan barcha sohasdagi matn va nutqni to'liq tushunarli qilib tarjima qildi degani emas. Tarjimon nafaqat tilni mukammal egallay olgan balki o'sha xalqning yashash tarzi madaniyati va urf odatlarini mukaqmmal egallay olishi shart deb hisoblaymiz. Tarjima jarayoni nafaqat ikki tilni bir biriga qilingan tarjimasi, balki madaniyatning ham almashuvidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Tarjimaning lingvistik printsipi, birinchi navbatda, asl nusxaning rasmiy tuzilishini qayta qurishni nazarda tutadi. Biroq, lingvistik printsipni asosiy sifatida e'lon qilish, asl matnni tarjima qilishda haddan tashqari ta'qib qilinishiga olib kelishi mumkin - bu so'zma -so'z, lingvistik jihatdan to'g'ri, lekin badiiy jihatdan zaif tarjimaga aylanadi, bu esa o'z -o'zidan formalizm turlaridan biri bo'ladi. Begona lingvistik shakllar aniq tarjima qilingan, stilizatsiya chet tili qonunlariga muvofiq sodir bo'ladi. Tarjima qilingan jumlaning sintaktik tuzilishi shunga o'xshash vositalar yordamida tarjimada ifodalanishi mumkin bo'lga hollarda, so'zma-so'z tarjimani keyingi adabiy ishlovsiz tarjimaning oxirgi varianti deb hisoblash mumkin. Biroq, sintaktik vositalarning ikki tilda mos kelishi nisbatan kam uchraydi; ko'pincha, so'zma-so'z tarjima qilinganida, o'zaro yaqin tillarning me'yorlari u yoki bu tarzda buziladi. Bunday hollarda biz mazmun va shakl o'rtasida ma'lum bo'lgan bo'shliqqa duch kelamiz: muallifning fikri aniq, lekin uni ifodalash shakli o'zaro yaqin tillarda soxta ekvivalentlikka duch kelish mumkin. To'liq tarjima har doim ham asl nusxaning hissiy ta'sirini takrorlamaydi, shuning uchun so'zma -so'z aniqlik va badiiylik bir -biri bilan doimiy ziddiyatda bo'ladi. Hech shubha yo'qki, tarjima lingvistik materialga asoslangan, badiiy tarjima so'z va iboralar tarjimasidan tashqarida bo'lolmaydi, tarjima jarayonining o'zi ham ikkala til qonunlarini bilishga va qonunlarni tushunishga asoslangan bo'lishi kerak. Til qonunlariga rioya qilish ham asl, ham tarjima uchun majburiydir. Ammo badiiy tarjima hech qachon faqat lingvistik korrelyatsiyalarni qidirish emas.

Tadqiqotchilar tilni badiiy asar materiali sifatida belgilaydilar va badiiy tarjima, uning fikricha, asl nusxasi ham uning qonunlarini adolat qiladi. Ammo badiiy tarjimani tushunish, lingvistik vositalarni solishtirish bilanoq, uning estetik tomoniga

e'tibor bermaslikni anglatadi. Tarjimaning badiiyligi, aslining badiiyligi, lisoniy yozishmalarining muvofiqligi mezoni nuqtai nazaridan faqat badiiy yozishmalarga xizmat qiladi. Shuning uchun, badiiy tarjima sifatini aniqlash uchun faqat lingvistik yozishmalarning umumiy mezoni qo‘llanilmaydi va foydalilik tarjima davomida asl nusxaga bir xil darajada og‘zaki yaqinlikni talab qilmasligi mumkin. Boshqalar esa, badiiy tarjimani so‘z ijodkorligi, ya'ni lingvistik emas, balki adabiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish kerak, deb hisoblaydilar. Bu nazariyaga ko‘ra, tarjimonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi asl nusxadan ilhomlangan g‘oya bo‘lishi kerak, bu uni fikrlarni so‘z bilan aks ettirish uchun etarli lingvistik vositalarni izlashga majbur qiladi, ya'ni badiiy tarjima lingvistik emas, asl nusxaga mos keladi. Biz har bir tarjima ijodiy jarayon sifatida tarjimonning individualligi bilan belgilanishi kerak degan fikrga shubha qilmaymiz, lekin tarjimonning asosiy vazifasi tarjimada asl nusxaning o‘ziga xos xususiyatlarini yetkazishdir. Originalga mos keladigan badiiy va hissiy taassurot yaratish, tarjimon eng yaxshi til vositalarini topishi kerak: sinonimlarni, mos badiiy obrazlarni va boshqalarni topish. Tarjima haqida gap ketar ekan tarjima va uning turlari haqida to‘xtalishni ma’qul deb topamiz. Terminni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilar ekanmiz quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishimiz mumkin; a) Tarjima qilinalayotgan tilda aynan o‘sha terminning ma’nosini bildiradigan so‘zning mavjud emasligi. b) Tarjima qilinilayotgan termin bir ma’noga ega emasligi. Bu uchraydigan muammoni faqatgina kontekstdan kelib chiqib tarjima qilish usuli bilangina yechish mumkin. Ushbu muammolarni bartaraf etish va temin tarjima jarayonini yengilroq qilish uchun quyidagi tarjima uslullarini taklif qilamiz: 1) Transleteratsiya ushbu usulda termin asliyat tilida qanday bo‘lsa grafik ya’ni harfma har qanday bo‘lsa shunday tarjima qilinadi. 2) Transkripsiya tovush formalari orqali tarjima qilish usuli yani tarjima qilinilayotgan tilda qanday aytilsa huddi shunday talaffuz qilib. 3) Kalka usulida tarjima qilish. Ushbu tarjima turi tarjimon uchun eng qulay usullardan biri hisoblanib aynan bir tilda bor terminning ikkinchi bir tildag semantikasini to‘liq saqlab qolgan tarzda so‘zma so‘z tarjima to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilish. 4) Izohli tarjima usuli. Izohli tarjima usuli bir tilda mavjud bo‘lgan termin boshqa bir tilga tarjima qilish jarayonida muqobil varianti toipilmgan taqdirda aynan o‘sha terming izoh berish orqali tarjima qilish. Masalan: Ilmiy ishimiz bevosita termin va uning tarjimasi bilan bog‘liq ekan terminnig tarjimasi quyigda berilga usullardan foydalanilsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz; Tarjima haqida gapirar ekanmiz tarjim. Ikki til xususiyatlarini bilish zamirida asarni har tomonlama o‘rganish, uning lug‘ati va realiylari ustida ishlash tarjimon uchun juda muhim va bu uni ma’lum darajada olim va tadqiqotchi bo‘lishini ham taqozo etadi. O‘zbek tilida

“til topish” degan ko‘p ma’noli ibora bor. Birovning qulf-kaliti ochilmagan yuragiga yo‘l
topishni aytishadi. Ikki odamning hayotda biror ish, muammo ustida bir-birini yaxshi tushunishi, bilishi va shunga ko‘ra ish ko‘rishi ham shu ibora bilan ifodalanadi. U o‘zaro kelishish, ahd-paymon ma’nolarini ham ifodalaydi. Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon o‘rtasida ham shunday til topishish bo‘lishi zarur. Bunda til topish deganda muallifning o‘ziga xosliklarini va muayyanasarning badiiy xususiyatlarini terananglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o‘z o‘quvchisiga katta ma’naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi. Biz bilamizki, tarjimon har doim so‘z bilan ishlaydi. U bir necha tillarning o‘rtasida ham ijodkor, ham lingivist, ham stilist sifatida ish olib boradi. Shuning uchun ham faqat tarjimon mehnati va talantining qudrati bilan tarjima asliyatga harjihatdan hamohang jaranglashi mumkin. Tarjimon jumla va gapni tashkil etuvchi alohida so‘zlarning ma’nolarini faqat va faqat kontekstga va uning oqimiga qarabgina chiqaradi, so‘zning ma’nosini jumlaga, jumlaning ma’nosini gapga, gapning ma’nosini alohida tugallangan parchaga va parchaning ma’nosini asarning butun mundarijasi, shakli hamda uslubga moslaydi. Zero, so‘zning, jumlaning maqsadi, vazifasi, undan muallif kuzatgan mazmun faqat kontekstda to‘la ochiladi. Tilda har bir so‘z bir nechalab ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Muallif, aytaylik, “bor” yoki “ko‘z” so‘zlarining o‘nlarcha ma’nolaridan ayni parchada qaysi ma’nosini ifoda etayapti, so‘zning ustiga qanday vazifalarni yuklayapti- bularni tarjimon tarjima jarayonida “chaqib”, “yechib”, “ochib” boradi. Bunda uning tillarni keng bilishi va interpretatsiya salohiyati kuchga kiradi. Shular bilan bir qatorda biz tarjima jaroyonida yuzaga keladigan muammolarga ham alohida to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Tarjima qilish muammolaridan biri bu butun matnning ma’nosi shuning unsurlari ma’nosining yig‘indisi bilan cheklanmasligidir. Matnda berilgan ma’no so‘zlarning denotativ, konnotativ, stilistik, gaplarning sintaktik, gaplardan kattaroq birliklarning sintaktik ma’nolari, so‘z va so‘z birikmalarinng suprasegment hamda leksik-semantik ma’nolari o‘rtasidagi bevosita aloqalarga asoslanadi. Har bir leksik-grammatik maydon o‘zining alohida strukturasiga ega va shu bilan birga u o‘zining leksik, morfologik hamda sintaktik tizimiga ham ega hisoblanadi. Shuning uchun ham ikki til ya’ni xorijiy va ona tili xususiyatlarini bilish yaxshi amaliy bilim hisoblanadi ammo shunisi ma’lumki bu tarjima uchun yetarli emas. Tilning xususiyatlarini bilishdan tashqari tarjimon ishonchli malakaga ham ega bo‘lishi zarurdir. Misol

uchun tarjimon ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilayotganida ingliz tilini german tillari oilasiga mansubligi, undagi so‘z tartibi, birikmalarning xususiyatlari, zamonning qo‘llanishi, ko‘p ma’noli so‘zlarning ishlatilishi, so‘zlarning sinonimik qatorda stilistik jihatdan farq qilishi va shu kabilarga alohida e’tibor berishi va o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida o‘zbek tilining turkiy tillar oilasiga mansubligini, so‘z tartibi ingliz tiliga nisbatan farq qilishini, ingliz tilidagi zamonlar soni o‘zbek tiliga nisbatan kam sonni tashkil qilishini, o‘zbek tili leksik qatlamida arab, fors, mog‘ul so‘zlarining mavjudligi kabi holatlarni hisobga olishi zarur bo‘ladi. Shuning uchun ham tadqiqotchi Muattar Jo‘rayeva bejizga “Tarjimon chizmakash emas, rassom! ” degan shior-sarlavha ostida maqola e’lon qilmgan. Tarjima faoliyati bir -biridan sezilarli farq qiladigan ikki xil tarjimaga bo‘linadi. Yozma tarjima - har ikki matnning yozma tilining me’yorlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda, asl matnning ma'nosini yozma yoki elektron ommaviy axborot vositalarida yozma matnga o‘tkazish. Tarjima har ikki tilda og‘zaki nutqning xususiyatlarini hisobga olgan holda, manba tili madaniyati vakili bayonotining ma'nosini maqsadli tilga o‘tkazishga qaratilgan. Sharh bir vaqtning o‘zida va ketmaket bo‘linadi. Shuni ta’kidlash kerakki, imo -ishora tilining tarjimasi odatda talqin turi sifatida tasniflanmaydi. Kompyuter ixtirosi elektron lug‘atlar va keyinchalik kompyuter yordamida tarjima dasturlarini yaratishga yordam berdi. Ularning yordami bilan qilingan tarjima matnning semantik va undan kelib chiqadigan hissiy tomonini o‘z ichiga olmaydi. Bunday yordamchi tarjimonlarning muammolari sun'iy intellektni o‘zo‘zidan o‘rganishga o‘xshaydi. Shunga qaramay, bunday vositalar tarjima faoliyatida, ayniqsa yirik tarjima agentliklarida ajralmas hisoblanadi. Ayrim so‘zlar, jumlalar va butun iboralarni avtomatik tarjima qilish bo‘yicha onlayn xizmatlar ham mavjud (masalan, Google Translate), ular odamlar tomonidan individual iboralarni tarjima qilish haqidagi statistik ma'lumotlarga asoslangan. Tarjima agentliklarining xizmatlari dunyoning aksariyat mamlakatlarida talabga ega, chunki tarjimaga ehtiyoj inson faoliyatining ko‘plab sohalarida mavjud.

Shunday qilib, tarjima texnik, biznes, sayyohlik, kundalik va boshqa sohalarni ta’minlaydi va har kuni sayyoramizdagi millionlab odamlar uchun til to‘sig‘ini engishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1] – Mahmud Koshg‘ariy. Turkiy so‘zlar devoni. (Devoni lug‘otit turk).

3 jildlik.1-jild. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi: Solih Mutallibov. –T.: Fan, 1960. –500 b.

[2] – Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. –Toshkent: “Ta’lim”, 2009. –160 b.

[3] – Nurmonov A. Tanlangan asarlar 2-jild. Lingvistik ta’limotlar tarixi – Toshkent: 2012. –232 b.

[4] – O‘rinboyev B. O‘zbek tilshunosligi tarixi. Samarqand: SamDU,1999. –80 b.

5] – Шониёзов К.Ш. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. – Т.: 2001. – 464 б.

BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDAGI TELEMATIK TIZIMNI TAHLIL QILIB TOSHKENT SHAHRI AVTOMOBIL YO‘LLARIDA QO‘LLASH

X.X. Xayitov
xayotjonxayitov91@gmail.com

R.M. Xudaykulov
Rashidbek_19_87@mail.ru

I.S. Sodikov
jaamm.ru@gmail.com
Toshkent Davlat Transport Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda avtomobil yo‘llari sohasida ilg‘or texnologiyalarni, xususan Birlashgan Arab Amirliklaridagi telematik tizimlarni qo‘llagan holda harakat xavfsizligi va qulayligini ta’minlash borasidagi tadqiqotlar natijalarini Toshkent shahar “Bobur” ko‘chasida qo‘llashning samaradorligi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Avtomobil yo‘li, telematika, harakat xavfsizligi, chorrahalar, tutashmalar, kamera, harakat jadalligi, oqim tarkibi.

Abstract: This article presents the effectiveness of applying research results to ensure road safety and comfort using advanced technologies in the field of highways, in particular, telematics systems in the United Arab Emirates, on Babur Street in Tashkent.

Key words: Highway, telematics, traffic safety, intersections, junctions, camera, traffic speed, flow structure.

Kirish. Bugungi XXI asr texnologiyalar asrida ma’lumotlar almashinuvi, zamonaviy aloqa tizimlari kabi yangidan yangi boshqaruv va kuzatuv vositalari yordamida barcha sohalarda ish samaradorligini oshirib kelmoqda. Xuddi shunday tizimlar avtomobil yo‘llari sohasida ham keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Har qanday rivojlangan davlatni o‘rganmang barida iqtisodyotining rivojlanishi ortida avtomobil yo‘llari tarmog‘i, ularning zamonaviy yechimlari va boshqaruv tizimi yotadi. Avtomobil yo‘llari tarmog‘i qanlchalik ko‘p bo‘lsa shu qadar harakat xavfsizligi, qulayligi va erkin oqimlarga bo‘lgan talab ham shu qadar yuqori bo‘ladi.


Telematika tizimini avtomobil yo‘llariga qo‘llash orqali biz bir necha afzalliklarga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

- Yo‘llarda harakatni tashkil qilishda tezkor qaror qabul qilish;
- Ma’lumotlarni oson yetkazish;
- Kuzatuvni amalga oshirish;
- Yo‘llardagi tartibni saqlash;
- Yo‘llarni tamirlash va saqlashda FIK ning yuqoriligiga erishish va hk.

Telematik tizim - bu yo‘llardagi harakatni, transport vositalarini yoki boshqa mobil qurilmalarni kuzatish va boshqarish kabi turli funktsiyalarni ta’minlash uchun telekommunikatsiya va informatikani birlashtirgan texnologiya. Bu odatda, real vaqt rejimida transport vositalari joylashuvini kuzatish uchun GPS (Global Positioning System) yoki boshqa shunga o‘xshash sun’iy yo‘ldosh navigatsiya tizimlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi [1-2].

Telematik tizimlar transport, logistika va avtomobillar to‘xtash joylarini boshqarish kabi turli sohalarda samaradorlik, xavfsizlik va unumdorlikni oshirishda yuqori samaradorlik kasb etadi [3]. Avtomobil diagnostikasi, haydovchi xatti-harakati, yoqilg‘i sarfi va boshqalar bilan bog‘liq ma'lumotlarni to‘plashi va uzatishi mumkin. Ular ko‘pincha ma'lumotlarni tahlil qilish va hisobot berish uchun markazlashtirilgan serverlar yoki platformalarga uzatish uchun uyali tarmoqlar yoki sun'iy yo‘ldosh aloqasi kabi simsiz aloqa texnologiyalar keng qo‘llaniladi [4].

Avtomobil yo‘llarida telematika tizimlarining ahamiyati bo‘yicha ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida bir qancha rivojlangan davlatlar tajribalarini ham o‘rganib chiqildi. Xususan, BAA davlatida telematikaning qo‘llanilishi anchayin oldinlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, BAA da yo‘llarni nazorat qilishda markazlashgan boshqaruv yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, “Dubai Roads Yagona boshqaruv markazi va Intellektual harakat tizimlari” markaziy boshqarmasi tunu kun online rejimda transport harakatini nazorat qilib boradi (1-rasm).



1-rasm. “Dubai Roads Yagona boshqaruv markazi va Intellektual harakat tizimlari” markaziy boshqarmasi ofisi

Bundan tashqari Birlashgan Arab Amirliklari davlati avtomobil yo‘llarida qo‘llanilib kelinayotgan telematic tizimlardan yana biri – bu yo‘llardagi axborot

beruvchi electron tablolari hisoblanadi [7,8]. Ushbu elektron tablolari yordamida avtomobil yo‘li holati, ob-havo sharoiti, qoplama holati, yo‘llarda yuzaga kelgan yo‘l transport hodisalari nuqtasi hamda vujudga kelgan tirbandliklar haqidagi ma‘lumotlar aks ettirilib boriladi (2-rasm).



2-rasm. BAA dagi telematika tizimi elementlari namunalari

Ushbu elektron tablolariga ma’lumotlar qisman sun’iy intellekt yordamida yuqorida ta’kidlangan boshqaruv markazi xodimlari tomonidan real vaqt asosida yangilanib turiladi.


Shu bilan bir qatorda Birlashgan Arab Amirliklarida jamoat transporti xususan avtobuslar qatnovi juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Xususan, Dubay shahrining o‘zida 400 ga yaqin avtobuslar, 450 ga yaqin avtobus bekatlari hamda 12 ta yo‘ldan iborat tarmoqlar 7/24 rejimida yo‘lovchilarga xizmat qilib kelmoqda. Avtobus bekatlariga yangi zamonaviy ko‘rinish kasb etuvchi dizayn va telematik tizim yordamida ishlovchi qurilmalar joriy qilingan (3-rasm). Shu bilan birgalikda BAAning Dubay shahridagi aqilli bekatlarda monitorlar o‘rnatilgan bo‘lib, bu monitorlar orqali avtobuslarning oraliq intervallari, yo‘nalish xaritalari, avtobusning bekatga kelish vaqti, harakat tezligi, boorish kerak bo‘lgan manzilgacha chipta narxi va taxminiy sayohat vaqtini bilib olish mumkin [9].



3-rasm. BAA Dubay shahridagi avtobus bekatlari

Respublikamiz avtomobil yo‘llarida telematika tizimlarining qo‘llanilishining Toshkent shahri “Bobur” ko‘chasi misolida ilmiy tadqiqotlar olib borildi [6]. “Bobur” ko‘chasi xalqaro aeroportdan “Furqat” ko‘chasigacha bo‘lgan 4.23 km uzunlikdagi magistral ko‘cha hisoblanadi (3-rasm).

a) b)



4-rasm. “Bobur” ko‘chasi xaritasi: a-sputnikdagi tasviri, b-yo‘lning sxematik chizmasi

Poytaxtimizning “Bobur” ko‘chasi harakat jadalligi bir muncha yuqori ammo ko‘chaning shahar markazida joylashganligi sababli og‘ir yuk avtomobillar harakati u qadar kuzatilmaydi (1-jadval). Harakat jadalligini o‘lchash ishlari MQN 45-2007 me’yoriy hujjat asosida olib borildi [5].

1-jadval. Harakat jadalligini o‘lchash natijalari

T/R	Vaqt oralig‘i	Yengil avtomobillar	Yuk avtomobillari	Avtobuslar va mikroavtobuslar	Velo-moto transporti	Jami:
			3,5 t gacha			
1	**8^{00} ; 9^{00}**	1034	86	96	17	1233

2	**18^{00} ; 19^{00}**	1120	97	114	24	1354
3	Olingan qiymatlarni o‘rtacha arifmetikasi A + B / 2 1233+1355 / 2 ≈ 1294				2588	

Harakat jadalligini o‘lchash ishlari asosan transport vositalari harakati yuqori bo‘lgan paytlarda, ya’ni 8^{00}-9^{00} hamda 18^{00}-19^{00} vaqtlari oralig‘ida kuzatuv ishlari olib orildi (4-rasm). Kuzatish natijalari umumlashtirilib avtomobil yo‘lidagi harakat jadalligining o‘rtavha qiymati hisoblab topildi.



5-rasm. “Bobur” ko‘chasida harakat jadalligini o‘lchash

“Bobur” ko‘chasini o‘rganishlar jarayonida transport vositalarining chorrahalarda turib qolishi, svetofor sikli, piyodalar yo‘lagi holati, avtobus bekatlari hamda eng asosiy ko‘rsatgich ya’ni telematikaning joriy qilinganlik holatlari o‘rganildi.

Bobur ko‘chasi bo‘ylab turli sathda va bir sathdagi kesishmalar mavjud. Turli sathda Bobur ko‘chasi kichik halqa yo‘li PK 5+50, hamda Qumariq ko‘chalari bilar yo‘l o‘tkazgich orqali ya’ni PK 2+30 kesishgan.

Bir sathda kesishuvchi ko‘chalar barchasi boshqariladigan chorrahalardir.


1) PK 18+70 Nukus ko‘chasi- setoforlar sikli qizil 50 sekund, sariq 5 sekund, yashil 20 sekund bo‘lib, bu sikl to‘rtala qatnov qismi uchun amal qiladi;

2) PK 24+90 Shota rusteveli va Bobur ko‘chalari kesishmalari- svetofor sikli qizil 65 sekund, sariq 5 sekund, yashil 17 sekund;

3) PK 42+50 Bobur va Seul ko‘chalari kesishmasi - svetofor sikli qizil 60, sariq 5 sekund, yashil 15 sekund.

Bundan tashqari PK 25+60 Yusuf xos hojib, PK 32+50 Bratislava, PK 33+20 O‘rikzor ko‘chalari bilan Bobur ko‘chasi tutashgan bo‘lib, bu tutashmalarda svetofor sikli asosiy ko‘chada 30 tutashuvchi ko‘chalarda esa 50 sekundni tashkil qilmoqda. Chorrahalarda ortiqcha turib qolishlar asosan harakat jadalligi yuqori soatlarda kuzatilib kutib qolishlar 40 sekunddan 2 daqiqagacha davom etdi.

“Bobur” ko‘chasi bo‘ylab har ikki tomonda ham piyodalar va velosipet harakati uchun yo‘laklar mavjud va ular soz holatda. Ushbu yo‘laklar bilan avtomobil yo‘li orasida yashil hudud ham mavjud bo‘lib shahar chiroyini yanada ochmoqda (5-rasm).



6-rasm. Piyodalar va velosiped yo‘lagi holati

Toshkent shahrining Bobur ko‘chasi bo‘ylab avtomobil yo‘llarida, piyodalar yo‘lagida, chorrahalarda va yo‘lga yondosh hududlarda kuzatuv kameralari, transport vositalari tezliklarini nazorat qilish qurilmalari, qoidabuzarliklarni aniqlovchi kuzatuv moslamalari mavjud. Bundan tashqari telematikaga oid juda foydali shunday yo‘nalish tanlanganki, ya’ni Shota Rustaveli ko‘chasi bilan kesishgan chorrahada elektron tablo o‘rnatilgan (6-rasm).




7-rasm. “Bobur” ko‘chasida telematik tizimning qo‘llanilishi

“Bobur” ko‘chasi bo‘ylab mavjud muammolar va ularning yechimlari

“Bobur” ko‘chasini hamda BAA davlatlari avtomobil yo‘llari va telematika tizimini o‘rganishlar natijasida quyidagicha umumiy tavsiyalar berishimiz mumkin (2-jadval). Eksperimentlar va kuzatishlar olib borilgan ushbu ko‘chada bir nechta kamchiliklar va transport vositalari ishtirokida qoidabuzarliklar aniqlandi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki piyodalar o‘tish joylari hamda piyodalar ishtirokidagi qoidabuzarliklar yoki nuqson va kamchiliklar kuzatilmadi. Lekin, avtobus bekatlariga

o‘zgartirishlar, innovatsion yechimlar tadbiq qilish orqali yo‘lovchilarning qulayligini oshirish mumkin bo‘ladi. Bobur ko‘chasi bo‘ylab kuzatilgan eng katta kamchiliklardan biri – bu tirbandliklar masalasi hisoblanib, ushbu kamchilik asosan svetofor sikllarining ishlash prinspi natijasida yuzaga kelmoqda (8-rasm).



8-rasm. Bobur ko‘chasidagi tibandliklar

T/r	Mavjud kamchiliklar	Tavsiyalar
1	Bobur ko‘chasi bo‘ylab jami 7+7=14 ta ya’ni; PK 10+04; PK 10+46; PK 10+98; PK 20+48; PK 20+84; PK 30+16; PK 30+73 nutqtalarida avtobus bekatlari mavjud bo‘lib bu avtobus bekatlari zamonaviy telematik tizimlari joriy etilmagan;	Bekatlarni zamonaviy va yo‘lovchilar uchun qulay qilish maqsadida BAA tajribasidan foydalanish ya’ni har bir bekatga sensorli manitorlar joylashtirib avtobuslarning harakat jadvallari va yo‘nalishlarini online kuzatish imkonini yaratish tavsiya etiladi;
2	Ko‘ch bo‘ylab mavjud chorrahalarda axborot beruvchi electron tablolar faqatgina PK 24+90 da qo‘llanilgan	Ko‘chaning barcha bir sathdagi kesishmalariga Shota Rustaveli ko‘chasidagi kesishma singari ma’lumot beruvchi elektron tablo joriy qilish;
3	Chorraha va tutashmalardagi joriy svetofor sikllari harakat jadalligi yuqori soatlarda yaxshi samara bermayabdi;	Svetofor sikllarini boshqaruv markazi tomonidan kuzatuv asosida o‘zgartirish yoki bu sikllarni avtomatik tizimga o‘tkazish. Bunda yuqorida tahllil qilingan BAA tajribasidan foydalanish yuqori samara beradi;
4	Butun ko‘cha uzunligi bo‘ylab avtobuslar uchun ajratilgan yo‘lakda yengil avtomobillarning parkovka qilinganligi, bu esa avtobuslarning harakatiga noqulayliklar paydo	Bobur ko‘chasidagi yirik savdo manzillari, dam olish manzillari yonidan parking maydonchalarini barpo qilish va parkovka bo‘yicha axborot beruvchi

	qilmoqda.	ma’lumotlarni chorrahalardagi monitorlarga uzatish.

Xulosa

Yuqoridagi eksperiment natijalariga tayanib xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, telematika tizimi avtomobil yo‘llarining zamonaviy, xavfsiz va qulay bo‘lishligida muhim ahamiyat kasb etadi. Hamda dunyoda raqobatbardosh yo‘llar qurilishi uchun telematikani joriy qilish avtomobil yo‘llaridagi mavjud muammolarni bartaraf etishda yechim bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Транспортная телематика в дорожной отрасли/ В.М. Власов, Д.Б. Ефименко, В.Н. Богумил. – М.: МАДИ, 2013

2. Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li, Yadgarov Sirojiddin Namozovich “Avtomobil yo‘llarida geoaxborot tizimlarining o‘rni”. Golden Brain, Scientific Journal. ISSN 2181-4120 Volume 1, Issue 35 December 2023.

3. Власов, В.М. интелектуалние транспортние системи в автомобилно дорожном комплексе /М.: МАДИ "МЕЙЛЕР", 2011

4. Дмитриев И.И., Кирилов А.М. Умние дороги и интелектуалная транспортная система МАДИ, 2016

5. MQN 45-2007- “Avtomobil yo‘llarida harakat jadalligini o‘lchash”

6. https://yandex.uz/maps/10335/tashkent/?ll=69.279737%241.311151&z=12

7. https://www.fleximodo.com/?gad_source=5&gclid=EAIaIQobChMIh5CNhZybhQMVZxaiAx18Sgr5EAAYASAAEgKqD_D_BwE

8. https://www.almajidproperty.com/ar/blogs/major-uae-highway

9. https://www.speedydrive.ae/ar/blog/top-5-uae-freeways-for-driving/

АНАЛИЗ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В ПОВЕСТИ Ч. АЙТМАТОВА «ДЖАМИЛЯ» И ГУЗЕЛЬ ЯХИНОЙ «ЗУЛЕЙХА ОТКРЫВАЕТ ГЛАЗА»

Акбаров О.А.
Доцент ФерГУ к.ф.и. доц.

Абдулхонова Шахзодахон Ганишеровна
Магистрантка специальности литературоведение (русская литература)
shakhzodaabdulkhanova@gmail.com

Аннотация: Статья сделана попытка рассмотреть образы главных героинь повести Ч.Айтматова "Джамиля" и романа Г.Яхиной "Зулейха открывает глаза". Не смотря на то что, литературные жанры повесть и роман сильно отличаются друг от друга по ряду своих признаков, попробуем найти перекликающиеся моменты в характерах героинь и событиях. В этих произведения темы женской покорности и обреченности, вечные темы веры и любви, становления личности являются общими.

Ключевые слова: русская литература XX века, художественный образ, мотив, реализм, тема любви, тема веры, женская покорность, становление личности, Джамиля, Зулейха.

Annotation: The article makes an attempt to consider the images of the main heroines of Ch. Aitmatov's story "Djamilya" and G. Yakhina's novel "Zuleikha Opens Her Eyes". Despite the fact that the literary genres of the story and the novel are very different from each other in a number of their characteristics, we will try to find overlapping moments in the characters of the heroines and events. In these works, the themes of female humility and doom, the eternal themes of faith and love, and the formation of personality are common.

Key words: Russian literature of the twentieth century, artistic image, motif, realism, theme of love, theme of faith, female submission, personality development, Jamila, Zuleikha.

Чингиз Айтматов очень долго определялся в литературе, искал героев, темы, сюжеты. Его герои — труженики, твердо верящие в светлые, добрые начала создаваемой при самом активном их участии жизни. Это люди чистые и честные, открытые всему хорошему в мире, в деле безотказные, в стремлениях возвышенные, во взаимоотношениях с людьми прямые и откровенные.

В повести «Джамиля» писателю удалось схватить и запечатлеть яркие куски жизни, светящиеся радостью и красотой, несмотря на пронизывающий их внутренний драматизм. Также, в произведение Гузель Яхиной главная героиня Зулейха, смогла завоевать сердца читателей, тем что многие узнали себя или своих знакомых.

В небольшой повести «Джамиля» преобладает одно очень ценное для писателя ощущение: внутренняя готовность принять всю полноту и удивительное многообразие жизни, естественность каждого душевного движения, идущая от органической уверенности в своем достоинстве, в своей человечности. Свободное, легкое дыхание чувствуется в этой чуть наивной, доверчивой прозе. Роман «Зулейха» также принимает все сложности и многообразие непонятного, но интересного мира со всеми своими новшествами и дикостью для простой деревенской женщины. Это произведения об извечном и неутолимом стремлении женщин к свободе.

Произведения знаменитых писателей о судьбах «маленьких женщин» Джамиля и Зулейха имеют много общего, чем казалось на первый взгляд. Война в этом плане является ключевым стержнем для развития дальнейших событий и личностного роста героинь. Героини «Джамиля» Чингиза Айтматова и «Зулейха» Гузель Яхиной проходят через трансформационный путь, который не только затрагивает тему борьбы народов, но и демонстрирует силу и стойкость духа простых людей.

Опираясь, на опыт и историю своих народов Чингиз Айтматов и Гузель Яхина создали заставляющие задуматься повествования, в которых исследуются сложности жизни и значение становления личности для формирования идентичности героев. В обоих произведениях описывается военное время и отражение последствий войны в жизнь простых людей. Это лето сорок третьего года в произведение «Джамиля» и время раскулачивания (тридцатые-пятидесятые годы советского времени) в романе «Зулейха». Именно в эти тяжелые времена начинается трансформация героинь.

Героини изображены как покорные женщины своего времени, одна киргизка другая татарка, связанные общественными нормами и ожиданиями, навязанными им семьями и обществом. Однако их обыденная жизнь принимает драматический оборот, когда теряют крепкую почву под ногами, своих мужей; оставаясь одни на произвол судьбы и обстоятельств. По мере того, как жизнь продолжается их жизни превращаются на поле боя, и они обе вынуждены

приспосабливаться к суровым реалиям войны. Именно в эти тяжелые времена начинается трансформация главных героинь.

В этих произведениях главные героини невестки, трудолюбивые, терпеливые, не нарушающие семейные традиции и обычаи. «Джамиля была под стать матери – неутомимая, сноровистая, только вот характером немного иная». [7. 16] И работала Джамиля напористо, с мужской хваткой. [7. 19]. В «Зулейхе…» главная героиня почти всегда находится на пределе своих физических сил. Она должна работать, как ее муж, даже намного больше мужа: не только работать наравне с ним, но и обслуживать его мать и его самого, когда он уже отдыхает от трудов. Уход за скотиной, заготовка дров, приготовление еды, топка бани – все ложится на хрупкие в прямом смысле слова плечи Зулейхи. [8. 517]

Джамиля была хороша собой. Стройная, статная, с прямыми жесткими волосами, заплетенные в две тугие, тяжелые косы, она ловко повязывала свою белую косынку, чуть наискос спуская ее на лоб, и это очень шло ей и красиво оттеняло смуглую кожу гладкого лица. Когда Джамиля смеялась, ее иссиня-черные миндалевидные глаза вспыхивали молодым задором, а когда она вдруг начинала петь соленые аильные песенки, в ее красивых глазах появлялся недевичий блеск. [7. 21]

Поначалу и Джамиля и Зулейха охвачены страхом и беспомощность перед настигшими их обстоятельствами судьбы. Становятся очевидцами разрушений и гибели людей, где война никого не щадит. Это сцена возвращения раненных солдатов с фронта из произведения Чингиза Айтматова "Джамиля", и эшелон, что увозит и убивает людей голодом и беспомощностью из романа Гузель Яхиной "Зулейха открывает глаза". Они также разрываются между верностью мужьям и растущими чувствами к другому человеку, что считается грехом для их народов. Это неожиданный возлюбленный дезертир Садык из повести «Джамиля» и убийца мужа и виновник всех ее бед, Игнатов из романа «Зулейха открывает глаза». Однако, со временем, и Джамиля и Зулейха начинают сомневаться в традиционных ролях, которые были навязаны им как женщинам. Они начинают проявлять самостоятельность и принимать решения самостоятельно, освобождаясь от ограничений патриархального общества.

B21=A * gamma(5 - 2 * a)/gamma(5 - a) - A * gamma(6 - 2 * a)/gamma(6 - a) - C * gamma(7 - 2 * a)/gamma(7 - a)+ C * gamma(8 - 2 * a)/gamma(8 - a)
B22=A * gamma(5 - 2 * a)/gamma(5 - a) - A * gamma(7 - 2 * a)/gamma(7 - a)- C * gamma(7 - 2 * a)/gamma(7 - a) + C * gamma(9 - 2 * a)/gamma(9 - a)
F1=-gamma(4)/gamma(4 + a)+ gamma(5)/gamma(5 + a)
F2=-gamma(4)/gamma(4 + a)+ gamma(6)/gamma(6 + a)
b=np.array([[B11,B12],[B21,B22]])
f=np.array([F1,F2])
c=np.linalg.solve(b, f)
c
```

$a = 0.5$ uchun $C_1 = -16.25$, $C_2 = 9.75$

$a = 1$ uchun $C_1 = 1.05555556$, $C_2 = -0.38888889$

Yuqoridagi kabi masalalar [6-10] ishlarda ham ko‘rilgan/

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Самко С.Г., Килбасс А.А, Маричев О.И. Интегралы и производные дробного порядка и некоторые их приложения. Минск, 1987.

2. Нахушев А.М. Элементы дробного исчисления и их применение. Нальчик, 2000.

3. А.К.Уринов, С.М.Ситник, Э.Л.Шишкина, Ш.Т.Каримов. Дробные интегралы и производные (обобщения и приложения): учебное пособие; учебно-методическое издание; на русском языке; А.Уринов и др. Фергана: изд. “Фаргона”,2022.-192 стр.

4. Уринов А.К., Каримов Ш.Т. Операторы Эрдейи-Кобера и их приложения к дифференциальным уравнениям в частных производных: монография; научное издание; на русском языке; /А.К.Уринов, Ш.Т. Каримов. Фергана: изд. “Фарғона”, 2021. -202 стр.

5. Fractional Calculus and its Applications, lecture notes in mathematics/ Ed. Ross B. Berlin, 1975.

6. Каримов Ш.Т. О некоторых обобщениях свойств оператора Эрдейи-Кобера и их приложение. Вестник КРАУНЦ. Физ.-мат. науки. 2017. № 2(18). С. 20-40. DOI: 10.18454/2079-6641-2017-18-2-20-40.

7. Каримов Ш.Т. Новые свойства обобщенного оператора Эрдейи – Кобера и их приложения. Доклады АН РУз. – 2014. -№ 5 -С. 11-13.

8. Karimov Sh. T. New Properties of Generalized Erdélyi–Kober Operator With Application. Dokl. Akad. Nauk Uzbek Republic. . – 2014. -№ 5 -С. 11-13.

9. Karimov Sh. T. About some generalizations of the properties of the Erdelyi–Kober operator and their application. Vestnik KRAUNC. Fiziko-Matematicheskie Nauki. 2017. № 2. С. 20-40.

10. Каримов Ш.Т., Хайдарова С. Численное решение периодических уравнений с дробно-интегральным оператором Вейля в главной части. Fars Int J Edu Soc Sci Hum 10(12), 2022; Volume-10, Issue-12, pp. 152-157.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI

Rustam Karimov Abdurasulovich
f.f.f.d, PhD,Buxoro Davlat Universiteti

Nurali To‘xtaev Negmurodovich
Buxoro davlat universiteti qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik magistri
e-mail: tukhtaevnurali1991@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida frazeologik birikmalarning paydo bo‘lish usullari va ularning o‘zbek tilidagi muqobillarini tadqiq etish usullari mavzusiga bag‘ishlanadi, maqolada frazeologik birikmalarning tarixi haqida bir qator ma’lumotlar keltirildi va frazeologik birliklarning qadimiy tarixga ega ekanligi haqida fikr yuritiladi. Shu bilan birga frazeologik birikmalarning paydo bo‘lish yo‘llari ancha muammoli bo‘lib uning hali ochilmagan qirralari bor.

Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik birikmalar yozuvchilarning asarlarida va oratorlarning nutqida stilistik vosita sifatida juda keng qo‘llanilmoqda. Chunki u fikrni aniq, to‘liq, obrazli ifodalaydi, shuningdek, nutqqa ifodalilik, emotsionallik va ko‘tarinkilik berish uchun xizmat qiladi. Frazeologik birikmalarning paydo bo‘lish yo‘llarini ingiliz tili va o‘zbek tilida qiyoslar ekanmiz, uning o‘ziga xos hususiyatlarini, unda uchraydigan o‘xshash va noo‘xshash tomonlarini o‘rganamiz.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, tilshunoslik, frazeologik birlik, til, kontekst, kontekstual xususiyat, tasnif, etimologiya, idiomalar.

Kirish. Jahon tilshunosligida frazeologik birikmalarning nazariy ta'rifiga doir barcha tillarda so‘zlashuvchi tadqiqotchilar tan olgan yagona va mukammal qarashning mavjud emasligi tufayli frazeologiyaning mohiyati masalasi doim bahsli hisoblanib, tilshunoslar frazeologizmlarning xarakterli xususiyatlarini aniqlash, xususan, ularning pragmatik tabiati va tarkibidagi konnotativ unsurning semiotik chegarasini topish uchun tinimsiz harakat qilib kelishadi. Frazeologiya nazariyasida salmoqli ijobiy siljishlar bo‘layotganligiga qaramasdan, tadqiqotlarda ilmiy va amaliy jihatdan ko‘tarilayotgan masalalardan ma'lumki, muammolar hanuzgacha o‘zining to‘liq yechimini topmayotir.

Frazeologik birliklar xalqning asrlar mobaynida yaratgan timsoliy ifoda va tasviriy vositalaridir. Ular xalq ijodiy tafakkurining o‘ziga xos mahsuli bo‘lib, ularda insonning tabiat va ijtimoiy hodisalarga munosabatlari muxtasar hamda mukammal tarzda o‘z ifodasini topadi, nutqqa ko‘rkamlik, joziba va obrazlilik baxsh etib, so‘zlovchi va tinglovchining kuchi hamda vaqtini tejashga xizmat qiladi, o‘quvchi-talabalarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga ko‘maklashadi.

Dunyo tilshunosligining frazeologizmlarni xalqning olam haqidagi tasavvurlari, milliy mentaliteti, tarixi va madaniyatinining lisoniy jamlanmasi sifatida tekshiruvchi tadqiqot metodlariga tayangan holda tojik va o‘zbek tillaridagi shaxs tavsifli frazeologizmlarning xususiyatlarini har ikkala til muqobil va o‘ziga xos xususiyatlarini tilning ichki qonuniyatlari asosida qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish mavzuning zamonaviy tilshunoslik uchun ahamiyatini belgilaydi.

Mustaqillik yillarida milliy tilshunosligimizda boshqa tillarning grammatik qurilishi hamda leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar yaratildi. Bu borada, ayniqsa, o‘zbek-ingliz, o‘zbek-rus tillarini qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etish borasida erishilgan natijalarni alohida qayd etish joiz. Ushbu maqolada Ingliz tilidan bevosita tarjima asarlarda neologizmlarda uchraydigan muammolarga doir ishlar tadqiqi bilan bog‘liq. Chet el yozuvchilarining asarlarini tahlil qilish orqali biz fan taraqqiyotiga jadal suratlarda kirib kelgan yangi atamalarni bilib olamiz va o‘zimizning ona tilimizda tadbiq qilamiz. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning maxsus sohasi sifatida rivojlangan va frazeologizmlar qiyosiy-tarixiy hamda sistem-struktur yo‘nalishda chuqur tadqiq etilgan. Biroq o‘zbek va ingiz tillarining frazeologizmlari hamda ularning etimologiyasi muammosi alohida tadqiqot ob'ekti bo‘lmagan, ular lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan boshqa tillarga qiyoslab nisbatan keng o‘rganilmagan. Shu bois ingliz va o‘zbek tillarining o‘ziga xos milliy xususiyatlarini namoyon etuvchi frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini chog‘ishtirib ularning etimologiyasini o‘rganish, bu orqali ingliz va o‘zbek tillarida frazeologizmlar tarkibini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash, har ikki tildagi frazeologizmlarning semantik strukturasini lingvomadaniy jihatdan ochib berish orqali ingliz va o‘zbek xalqlarining aqliy va ruhiy olami haqida xulosalarga kelish tilshunosligimizning dolzarb masalalaridandir.

Frazeologizmlar xalq tilining keng tarqalgan, ajdodlarning asrlar tajribasidan o‘tgan hayotiy kuzatishlari natijasida vujudga kelgan, tildan-tilga o‘tib sayqal topgan chuqur mazmun, ixcham shakl, ta'sirchan ifodaga ega bo‘lgan erkin so‘z

birikmalaridir. Muayyan fikrni tez, ravon, oson, aniq, tushunarli, ta'sirchan ifodalash frazeologik birliklarlarga xos xususiyatdir. FBlar o‘tkir kinoya, nozik qochirimlarni obrazlilik, majoziylik vositalari orqali ifoda etadi. Badiiy tasvir usullaridan keng foydalaniladi. Natijada, u mantiqiy tugal ma'noli iboraga aylanadi va o‘ziga xos sodda va ixcham badiy shakl, ritm va ohangga ega bo‘ladi.

Jahondagi barcha tillarda yaratilgan ibora, maqol, matal, hikmatli so‘z va idiomalar tabiat hodisalari, inson va jonzod tana a'zolarining nomlari, ota-ona-bola, qaynona-kelin munosabatlari, tog‘, daryo, qarama- qarshilik va ziddiyat, tasdiq va inkor, yaxshi va yomon, oq va qora, katta va kichik, rost va yolg‘on, adolat va zulm, minnatdorchilik va noshukurlik, mehmondo‘stlik va xasislik, manmanlik va kamtarlik, ta'lim va tarbiya, fe'l-atvor va xulq, donolik va nodonlik va insondagi his-tuyg‘ular kabi bir qancha tushunchalarni aks ettiradi. Har bir xalq uni boshqa xalqlardan ajratib turadigan o‘ziga xos belgilar bilan birga, umuminsoniy xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Chunonchi, umuminsoniy axloq, umuminsoniy fazilat, umuminsoniy burch va majburiyat mavjuddir. Bu esa xalqlar tillarida ham mushtarak hodisalar va o‘xshashliklar bo‘lishiga olib keladi.

Tadqiqot metodlari. Frazeologik birikmalarning paydo bo‘lish yo‘llari va ularning o‘zbek va ingliz tilidagi muqobillarini tadqiq etish hamda vazifalarini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim-tarbiyaviy ishlar to‘g‘risidagi hujjatlar hamda tilshunoslikning umumiy va xususiy nazariyasi, tilshunoslikning frazeologik qatlami bo‘yicha boshqalarning ilmiy ishlari va asarlari, xorijiy tilshunos olimlar professor I.V.Arnold, akademik V.V.Vinogradov, professor A.V.Kunin, L.P.Smit, shuningdek o‘zbek tilshunos olimlar professor E.M.Umarxo‘jayev, professor A.A.Mamatov, dotsent I.S.Soliyev, Sh.Rahmatullayev, dotsent A.Abduvaliyev, professor S.R.Rahimov olib borgan tadqiqotlar xizmat qilgan. Frazeologik birliklarning stilistik xususiyatlarini aniqlash va tavsiflashda stilistik metoddan foydalanildi. Bundan tashqari qiyosiy-tarixiy, qiyosiy tipologik va statistik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqot metodining asosiy salmog‘ini tipologik, semantik va tarjima metodlari tashkil qiladi yuqorida tilga olingan o‘ziga xoslikni namoyon qiluvchi vositalar sifatida frazeologizmlarning qo‘llanilishi, ishlatilish tartibi hamda ularning tarjimalarda berilishi bilan bog‘liq muammolar yuzasidan tadqiqot olib borildi; mazkur mavzu zamonaviy lingvistika yo‘nalishlari yuzasidan tahlil qilindi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Frazeologizmlar xalq og‘zaki va yozma ijodining juda qadimiy birliklari bo‘lishiga qaramay, frazeologiya tilshunoslikning

alohida bo‘limi sifatida o‘tgan asrning 40-yillarida maydonga keldi. Frazeologiya nazariyasiga dastlab fransuz tilshunosi Sharl Balli asos solgan bo‘lib, uning “Insholar uslubi” (Stilistika ocherki) va “Fransuz stilistikasi” nomli asarlarida so‘z birikmalari ilk bor tizimlashtirilgan. U so‘z birikmalarining uch guruhini farqlagan:

1) erkin so‘z birikmalari, ya'ni barqarorlikdan mahrum bo‘lgan, yasalganidan keyin parchalanib ketadigan so‘z birikmalari;

2) hamma ko‘nikkan so‘z birikmalari, ya'ni komponentlarning nisbatan erkin aloqa bilan tavsiflanadigan, ayrim o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yadigan so‘z birikmalari;

3) frazeologik qatorlar, ya'ni yonma-yon joylashgan ikki tushuncha deyarli bir butunga birlashadigan so‘zlarning guruhlari.

Frazeologiya sohasini ajratish, uning chegarasini belgilash, frazeologizmlarni ta'riflash va tasniflash haqida turli qarama-qarshi fikrlar yuzaga keladi. Binobarin, V.V.Vinogradov tomonidan iboralar leksik qatlam sifatida ma'no guruhlariga ko‘ra tasniflandi. Biroq olim frazeologiya hajmini juda kengaytirib yubordi. A.I.Smirniskiy frazeologizmlarni so‘z ekvivalenti deb hisoblaydi. Ye.A.Ivannikova frazeologizmni so‘zga aynan teng tushunish nutq va til faktlarini qorishtirish deb ta'kidlaydi. A.V.Kunin frazeologizmlarni struktural – semantik, sintaktik, morfologik, leksik tomonlari bilan alohida til fakti deb biladi.

V.N.Teliya muammoli masala sifatida frazeologiyaning ko‘rinishini leksikologiya bilan yonma-yon mustaqil bo‘lim sifatida ajratdi va til sistemasi bo‘limlarida batafsil asoslash bilan frazeologik qatlamning yuzaga kelishini rad etadi va tilning leksik semantik birligi sifatida e'tirof etilgan so‘zning muammoli masalalaridan an'anaviy frazeologiyaning muammoli masalalarini ajratishni frazeologik tadqiqotlarning kamchiliklaridan biri deb qayd etadi .

Rus tilshunoslarining tadqiqotlarida frazeologizmlar quyidagicha ta'riflanganini ko‘rish mumkin. Jumladan, V.L.Arxangelьskiyning nuqtai nazariga ko‘ra, “frazeologik birlik - tarkibidagi qismlar orasida ichki aloqadorlik mavjud bo‘lgan, so‘zlarning turg‘un, leksik-grammatik butunligidir” . S.G.Gavrinning ta'rificha, “frazeologizmlar umumxalq yoki ma'lum bir hududda ishlatiladigan til birligi bo‘lib, u turg‘un yoki so‘zamollik bilan o‘ylab topilgan yangi so‘z birikmalaridir

Darhaqiqat, jahon tilshunosligining frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarining qiyosida “frazeologizm” tushunchasining ko‘plab variantlari va uning ta'rifida ham turli qarashlarning mavjudligini ko‘rish mumkin. Binobarin, fransuz frazeologiyasi

bo‘yicha tadqiqot olib borgan tilshunos A.G.Nazaryanning ta'kidlashicha: “Frazeologizm – mustaqil til birligi bo‘lib, u tarkibiy qism, so‘z birikmasi va gapga nisbatan to‘liq va qisman semantik o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Tilning mustaqil birligi frazeologizm fonema, morfema, so‘z kabi boshqa til birikmalariga nisbatan murakkabroq bo‘lib, leksik, grammatik va ayniqsa, semantik jihatdan o‘ziga xos tuzilishga egadir. Bu strukturada ko‘proq ekstralingvistik omillar ishtirok etadi. Ular esa frazeologik birliklarning shakllanishi va rivojlanishida katta rolь o‘ynab, milliy xarakterni namoyon etadi. O‘zbek tilshunosligidagi Sh.Rahmatullaev, Ya.D.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Husainovlarning nomzodlik dissertasiyalarini o‘zbek frazeologiyasi sohasida amalga oshirilgan dastlabki ishlar deyish mumkin. Sh.Rahmatullaevning nomzodlik dissertasiyasi o‘zbek tilidagi fe'l iboralarning grammatik xususiyatlarini o‘rganish ishini boshlab bergan bo‘lsa, olim 1966 yilda himoya qilgan doktorlik dissertasiyasi va shu asosda e'lon qilingan “O‘zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari” nomli monografiyasi bilan tilimizdagi FBlarni lug‘aviy birlik sifatida o‘rganishni asosladi. Bu ishda FBlardagi polisemiya, sinonimiya, variasiya, antonimiya, omonimiya hodisalari boy faktik material asosida chuqur tadqiq etilib, iboralarning lug‘aviy birlik sifatidagi boshqa belgi-xususiyatlarini tekshirishga yo‘l ochilgan.

Keyingi davrlarda o‘zbek frazeologiyasining nazariy masalalarini rivojlanishiga B.Yo‘ldoshev, Abdimurod Mamatov, Abdug‘afur Mamatov, A.Isaev, A.Rafiev, M.Sodiqova, Q.Hakimov, K.Bozorboev, B.Jo‘raeva, Sh.Abdullaev, Sh.Almamatova, M.Vafoeva, Sh.Ganieva va boshqa qator tilshunoslarning tadqiqotlari munosib hissa bo‘lib qo‘shildi.

Turli til tizimlaridagi frazeologizmlarni qiyosi bo‘yicha Sh.Usmonova, I.Rasulov, A.Nasirov, L.Xolmurodovalarning tadqiqotlari amalga oshirildi. Sh.Usmonovaning tadqiqoti o‘zbek va turk tillari bo‘yicha amalga oshirilgan qiyosiy ishlarning dastlabkisi bo‘lib, unda somatik frazeologizmlar, xususan, bosh, ko‘z, qo‘l va oyoq somatizmlaridan tarkib topgan iboralar tayanch hadlariga qo‘ra o‘rganilgan. A.A.Nasirovning ishida fransuz, o‘zbek va rus tillaridagi proverbal frazeologizmlar milliy-madaniy nuqtai nazardan chog‘ishtirib tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunos olimlari A.Mamatov va B.Boltaevalarning “Frazeologik birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi” nomli monografiyasi frazeologik birliklarning lingvomadaniy, semantik-pragmatik tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda shaxs emosiyasi va shaxsga xos fazilatlar va xarakterlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning kognitiv hamda lingvomadaniy, milliy-madaniy

xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Ushbu monografiyada hozirgi o‘zbek adabiy tilining frazeologik tarkibi tarixiy etimologik jihatdan uch yo‘l bilan shakllanishi ko‘rsatilib o‘tilgan:

1) o‘zbek voqeligi asosida shakllangan;

2) qarindosh va noqarindosh tillardan o‘zlashtirish;

3) kalkalash yo‘li bilan kirib kelgan frazeologizmlar farqlanishi ta'kidlangan.

O‘zbek frazeologi B.Yo‘ldoshevning fikricha, — frazeologik birliklar yoki ibora deyilganda, tuzilishi jihatdan so‘z birikmasi yoki gapga teng, umumlashgan ma'no anglatuvchi, komponentlari qisman yoki to‘laligicha ko‘chma ma'no beruvchi turg‘un leksik-semantik birliklar tushuniladi .

Sh.Rahmatullayevning talqiniga ko‘ra o‘zaro frazeologik omonimlar va frazeologik paronimlar shuningdek frazeologik omoformalar va frazeologik paraformalar birbiriga shu qadar o‘xshash bo‘ladiki, ulardan biri o‘rniga ikkinchisini xato ishlatib yuborish mumkin. Agar iboralar o‘zaro tarkibidagi biror so‘z komponenti bilangina farq qilsa, ularni frazeologik paronimlar deb yuritish mumkin bo‘ladi. Masalan, “ko‘nglini ko‘tarmoq” – “ko‘ngli ko‘tarildi” va “ko‘nglini tog‘day ko‘tarmoq” – “ko‘ngli tog‘day ko‘tarildi”. Agar ba’zi iboralar biri ikkinchisida yo‘q garmmatik shakllanish sistemasiga ega bo‘lsa, frazeologik paraformalar haqida gapirish mumkin bo‘ladi. Masalan, “jon(i)kirdi” – “jonini kirgizmoq” va “jon kirdi” –“jon kirgizmoq” kabilar. So‘nggi yarim asr davomida frazeologiya jahon tilshunosligining diqqat markazida bo‘ldi, bir qator monografik ilmiy izlanishlar natijasida uning ob’yekti aniqlandi, tadqiqot metodlari ishlab chiqildi va bu fan tilshunoslikning boshqa sohalari qatorida o‘z o‘rnini shakllantirdi. Hozirgi kunda bu termin ikki ma’noda qo‘llanilmoqda.

1. Tildagi frazeologik birikmalarning jami;

2. Turg‘un iboralarni o‘rganuvchi soha, fan.

M.Irisqulovning ta'rifiga ko‘ra: – Frazeologizmlar barcha tillarda o‘zlarining barqarorlik xususiyatlari bilan, nutq jarayonida ularni yasash uchun so‘z tanlash va ma'lum grammatik shakllarda ishlatish yo‘li bilan yasalmasdan, tayyor holda mavjud bo‘lgan birlik sifatida qo‘llaniladi

So‘z birikmasi xalq voqeligi asosida shakllanib, frazeoligizmga aylanadi. Binobarin, frazeologizmlarni tashkil etgan komponentlar muayyan millat ongida madaniy kod sifatida ifodalanadi.

Xulosa. Shunday qilib, o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni strukural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlardan o‘rganish yuzasidan muayyan yutuqlarga erishildi va buning natijasida o‘zbek frazeologiyasi shakllandi. Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni ligvomadaniy, kognitiv va pragmalingvistik jihatdan o‘rganishga e'tibor kuchayib, bu sohadagi tadqiqotlar soni kengayib bormoqda.

Jahon tilshunosligida hozirgi kunga qadar frazeologiya sohasi keng va tor ma'noda tushunilib kelinmoqda. Masalaning murakkab tomoni shundaki, so‘z birikmalari o‘rtasidagi chegarani aniqlab beruvchi mezon mavjud emasligi, mavjud bo‘lganda ham uning mukammal emasligidadir. Frazeologik birliklarda ortiqcha so‘z, tasviriylik uchramaydi, chunki ixcham fikrning o‘zi estetik jihatdan katta mohiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nader Afshunpoura. Interlingual Transfer of Idioms by Persian Learners in Procedia. – Social and Behavioral Sciences, 2014. – P.45.
2. L.Pinnavaia. Sugar and spice… Exploring food and drink idioms in English. – Milan: Polimetrica, International scientific publisher, 2010. – P.22.
3. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараққиёти. Монография.– Самарқанд: СамДУ, 2013. – Б. 6.
4. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанл. докт. ...дисс. – Тошкент, 1993. – 297 б.
5. Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги провербал фразеологизмларнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари. Док дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 16 б.
6. Холмуродова Л.Э. Инглиз ва француз тилларидаги образли ва мотивлашган фразеологизмларнинг тематик идеографик талқини (лингвомаданий аспект): Филол. фанл. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50 б.
7. Ирисқулов М.Т. Тилшуносликка кириш. – Т., 2008, – Б.128-272.

IBRAT ASARLARIDA ANTONIM SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Odina Axmadaliyeva
FarDU magistranti.

Sharifa Iskandarova
FarDU professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada antonimlar haqida ma’lumot beriladi.Antonimiya hodisasiga atroflicha to‘xtalib o‘tiladi.Antonim leksemalar va antonim affikslarga misollar keltiriladi.Is’hoqxon Ibrat ijodida uchraydigan antonimlar tahlilga tortiladi.

Annotation. This article provides information about antonyms. The phenomenon of antonymy is discussed in detail. Examples of antonymous lexemes and antonymous affixes are given. The antonyms found in the works of Ishaq Khan Ibrat are analyzed.

Аннатоция. В статье подробно рассмотрено явление антонимии. Приведены примеры антонимических лексем и антонимических аффиксов.

Butun borliq o‘zaro bir-biriga qarama- qarshi munosabatlardan tashkil topadi. Ya’ni hodisalar o‘rtasida oppozitsiya mavjud bo‘ladi. Qarama-qarshilik hayotning asosiy qonuni bo‘lib, olamni anglashda mazkur kategoriyaning o‘rni beqiyosdir. Qarama -qarshilik borliqning asosiy mezonlaridan biri sifatida doimo olimlar diqqatini tortib kelgan hodisalardan biri sanaladi. Uning tildagi ifodasi ,asosan, antonimiya nomi ostida tavsif qilinadi.

Tilda so‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra antonim,omonim, sinonim va paronim kabi turlarga bo‘linadi. Bu esa nutqning ta’sirchan va chiroyli ifodalanishi va leksemalardagi nozik ma’no jihatlarini farqlashga yordam beradi.O‘zaro zid va qarama -qarshi so‘zlar antonim so‘zlar hisoblanadi.

Bu terminning ilmiy adabiyotlardagi, turli lug‘atlardagi fikr va mulohazalarga e’tiborimizni qaratamiz:

1.Antonimiya til birliklarining semantik jihatdan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lish hodisasi[19].

[19] Hojiyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.Toshkent

2. Antonim so‘zlar-o‘zaro zid,qarama-qarshi ma’noli so‘zlar:uzun-qisqa,yaxshi-yomon[20].

3.O‘zaro qarama -qarshi (zid) ma’noli so‘zlar antonimlar deyiladi. So‘zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi.Antonimlar 3 xil belgiga ega:1) shakli (fonetik strukturasi)jihatidan har xillik;2)ma’no jihatdan har xillik;3)ma’nodagi o‘zaro zidlik.Uchinchi belgi antonimlarni o‘zaro birlashtiradi,zid ma’nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy belgi hisoblanadi [21].

Demak ,tilshunoslikda antonym so‘zlar o‘zaro zid,qarama-qarshi ma’noli so‘zlar hisoblanib,faqat bir turkum doirasidagina sodir bo‘ladi. Masalan,chiroyli-xunuk kabi. Mustaqil so‘zlar singari qo‘shimchalar ham antonimlik xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin.Jumladan, odobli-odobsiz kabi.

Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo‘yicha munozarali qarashlar ham bor.Xususan ,ayrim manbalarda opa va singil, aka va uka ,tog‘a va xola kabi so‘zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlarini olib brogan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas ,balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi[22].Bizning fikrimizcha, aka-uka,opa-singil kabi so‘zlar juft so‘z bo‘lib,yosh jihatdan bir -biriga qarama-qarshi bolishi mumkin.

Antonimiya mezonini belgilashda SH.Rahmatullayev ,N.Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinspiga tayanish yaxshi natija beradi.Bu prisipga ko‘ra, ikkita ma’no o‘rtasidagi oraliq tushuncha aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o‘rin olgan tushunchalar o‘zaro antonimik munosabatlarda deb qaraladi[23].

Ana shunday antonim hodisalarini Is’hoqxon Ibrat nazmida ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Hama uylarda tilifun bo‘lur,
Pechka issiq,sovuq so‘lum bo‘lur.
(Ibrat.Madaniyat haqida masnaviy).

Ushbu masnaviyda issiq-sovuq so‘zlari antonimiya hodisasini yuzga chiqarmoqda.

Anda xotunlar ham qilurlar ish,
Demagaylarki,butun yozu qish.
(Ibrat .Madaniyat haqida masnaviy).

[20] Mahkamov M.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.Toshkent2013.
[21] Xolmanova Z.Tilshunoslikka kirish.Toshkent 2007.
[22] Sharipova O‘.Tilshunoslik asoslari.Toshkent 2006.44-bet.
[23] Sharipova O‘.Tilshunoslik asoslari.Toshkent 2006.45-bet.

Parchadagi yoz-qish so‘zlari antonim so‘zlar hisoblanadi.Bunda yuqoridagi mantiqiy markaz prinsipiga tayanilgan .Chunki, yoz bilan qish o‘rtasida kuz bor .Demak, oraliq tushuncha bor,shuning uchun yoz-qish zid ma’noli so‘zlardir.

Ulamoni yo‘qtur e’tibori,
To‘yu a’zada boy yuqori.
(Ibrat.Shikoyati zamona).

Leksik antonimlar muhim uslubiy vositalar hisoblanadi. Ular matnda qarama-qarshi qo‘yish ya’ni antiteza vositasi rolini bajaradi.Yuqoridagi parchada ham shunday vazifani bajargan.

Hech vaqti teng kelurmi husnda ham quvvati,
Ham bahorda kim qilur har yerda qari birla yosh.
(Ibrat.Dunyo aylab safarlar…).

Ushbu parchada yosh belgisiga ko‘ra farqlanuvchi zid ma’noli so‘zlar qo‘llangan.She’riy janrda antonim so‘zlarning ishlatilishi she’rning o‘qishliligini ta’minlaydi,yod olishga ham qulay imkoniyat yaratadi.

Guldek yuzingni, dilbarim,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib .
Sen shohi olam, men gado,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.
(Ibrat .Ko‘rgoni keldim sog‘inib).

Yuqoridagi bandda shoh-gado so‘zlari antonimiya hodisasini yuzaga chiqarmoqda. Shoh va gado leksemalari ijtimoiy kelib chiqish darajasiga ko‘ra farqlanuvchi juft so‘zlar hisoblanadi .

Kuyingda,dilbar ,zor-zor,
Shomu sabo,laylu nahor,
Yo‘q emdi bizda ixtiyor,
Ko‘rgoni keldim sog‘inib.
(Ibrat.Ko‘rgoni keldim sog‘inib).

Berilgan she’rda ikkita bir -biriga qarama -qarshi leksemalar ishtirok etgan:shom-sabo, layli-nahor. Sabo va layli so‘zlari eskirgan so‘zlar hisoblanib, sabo-tong, layli -tun sifatida talqin qilinadi.Ya’ni, erta tongdan shomgacha, qora tundan tonggacha ma’nolari anglashiladi. Ushbu she’rda antiteza hodisasining chiroyli namunasini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, yozuvchi badiiy asar yaratishda asarning mazmundorligi va ta’sirchanligini oshirish uchun turli xil badiiy vositalardan foydalanadi.Antonimlar ham badiiy asarning bo‘yoqdorligi va

ta’sirchanligini oshirishda yozuvchilar tomonidan keng qo‘llaniladigan badiiy vositalardan biri sanaladi. Is’hoqxon To‘ra Ibrat ham o‘z asarlarida antonimiya hodisasidan unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.Toshkent
2. Mahkamov M.Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.Toshkent2013.
3. Xolmanova Z.Tilshunoslikka kirish.Toshkent 2007
4.Sharipova O‘.Tilshunoslik asoslari.Toshkent 2006.44-bet.

NOZILIY RUBOIYLARINING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI

Abdulvosit Gulobov Nurulla o‘g‘li
TerDU, O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi
abdulvositgulobov67@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qo‘qon adabiy muhitida tojik va o‘zbek tillarida ijod etgan Nozil Xo‘jandiy ruboiylari badiiy tahlil etildi.Noziliy ijodidagi masal ruboiylarga badiiy sharh berildi. Noziliy ruboiylarining g‘oyaviy-badiiy xususiyati yoritilgan

Annotation. In this article, Nozil Khojandi's rubai, which was created in Tajik and Uzbek languages in the literary environment of Kokhan, was artistically analyzed. The ideological-artistic nature of Nozili's Rubaiyat is highlighted

Аннотация. В данной статье художественно проанализирован рубай Нозила Ходжанди, созданный на таджикском и узбекском языках в литературной среде Кохана. Выделена идейно-художественная природа «Рубайята» Нозили.

Kalit so‘zlar. Qo‘qon adabiy muhiti, Noziliy, devon, ruboiy, masal ruboiy, tashbeh, istiora, zullisonayn

XIX asrda Xo‘jandda tug‘ilib, Qo‘qonga kelgan va Qo‘qon adabiy muhitida o‘zining tojik va o‘zbek tilidagi she’rlari bilan ijod etgan Nozil Xo‘jandiy lirik merosining asosini g‘azal janri tashkil etsa-da, boshqa mumtoz she’r janrlarida ham sermahsul ijod etgan shoir hisoblanadi. Xususan, uning muxammas,qit’a, ruboiy, qasida, tuyuq,mustazod janridagi nazmiy namunalari bizgacha yetib kelgan. Noziliyning ruboiy janriga bo‘lgan munosabati ham diqqatga sazovor: u bitta maqol yoki matal asosida bittadan ruboiy yaratgan. Irsoli masal san’atining original namunasi bo‘lib qolgan bu ruboiylar o‘zining didaktik xarakteri va ravon uslubi bilan ajralib turadi.[1.68b]

Noziliy ruboiylari devonining 9a-9b, 198b-220b, 247b-252b sahifalarida 272ta ruboiy(544 bayt) yetib kelgan. Shundan 180ta (360bayt) tojik tilida qolgan 90ta (180bayt) o‘zbek tilida yozilgan.[4.21b]

Noziliy ruboiylari axloqiy-tarbiyaviy, ishqiy, ijtimoiy ruhdagi va ruboiyning g‘oyasi to‘laroq ochilishi uchun mashhur xalq maqoliga atalgan masal ruboiylari ham mavjud. Misol uchun:

O‘lturmoqqa joyi yo‘q,o‘zini jahon chog‘lar,

Yemoqqa quruq non yo‘q, dagi burdatdin yog‘lar,
Ahvoli zabun birla umri o‘tadur,andog‘
“Sichqon iniga sig‘mas,ketiga sipand bog‘lar”.[3.200b]

Nozilning bu ruboiysi masal ruboiy hisoblanadi, ruboiyda maqtanchoq kimsaga ta’rif berib o‘zi “O‘lturmoqqa joyi yo‘q,” lekin “o‘zini jahon chog‘lar”,deydi, keyingi misralarda ham maqtanchoqlik faqatgina ofat bo‘lishini badiiy tasvir vositalari orqali yoritib bergan. Yoki boshqa bir ruboiysiga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Dono kishiga hamma so‘zum rohati jon,
Nodon elini boshiga kaltakcha yomon,
Pand olsa nasihati darkor aylab,
Dunyoda aziz o‘lur –u uqboda omon.[3.248b]

Noziliyni bu ruboiysini axloqiy-tarbiyaviy ruhdagi ruboiy deyishimiz mumkin. Ya’ni “Dono kishiga hamma so‘zum rohati jon” va aksincha “Nodon elini boshiga kaltakcha yomon”deydi, bu misradan bilishimiz mumkinki, Noziliy haqiqat uchun, yomonlik,nodonlikka qarshi so‘z aytadigan, millatni ma’rifatini o‘stirdigan shoir hisoblangan, keyingi misrada “Pand olsa nasihati darkor aylab”-deydi, ya’ni agar dono nasihatni o‘ziga darkor deb pand olsa, “Dunyoda aziz o‘lur –u uqboda omon”-deydi.

Yoki quyidagi oshiqona ruboiysini badiiy tahlil etdigan bo‘lsak:

Mohim meni ko‘p alamda qo‘ydi ketti,
Yuz pora ko‘ngulni g‘amda qo‘ydi ketti,
Ko‘zni yumub ochkuncha kelib qalbimga,
Olmay nafasin damda qo‘ydi ketti.[3.248b]

Birinchi misrada o‘z yori haqida “Mohim meni ko‘p alamda qo‘ydi ketti”-deydi, misradan ma’lumki oshiq ma’shuqasidan shikoyat qilyapti,ikkinchi misrada shikoyat yanada kuchayadi “Yuz pora ko‘ngulni g‘amda qo‘ydi ketti”-deydi, keyingi misrada oshiq bu holatga juda tez tushganligini izhor etadi“Ko‘zni yumub ochkuncha kelib qalbimga”-deydi, so‘nggi misrada esa “ Olmay nafasin damda qo‘ydi ketti”-deydi. Ruboiyda tashbeh san’atidan o‘rinli foydalanilgan.

Yana bir oshiqona ruboiysini tahlil etadigan bo‘lsak, bu avvalgi ruboiysining mantiqiy davomi deyishimiz mumkin:

Bu qilgan ishi o‘ziga loyiq bormu,
Nozik diliga shul ishi muvofiq bormu,
Meni sof ko‘ngul birla aytgin tutum,
Mendin yana bir oshiq-i sodiq bormu.[3.249b]

Birinchi misrani oshiq ma’shuqasining “qilmish”laridan shikoyat bilan boshlaydi, keyingi misrada esa ma’shuqasiga xushomad ohangida “Nozik diliga shul ishi muvofiq bormu”-deydi, keyingi misrada ma’shuqaga murojaat qilib “Meni sof ko‘ngul birla aytgin tutum”-deydi, so‘nggi misrada o‘zini haqiqiy “oshiq-i sodiq” ekanligini aytadi.

Nozil lirik janrlar tabiatiga ijodiy munosabatda bo‘lib ularga ijtimoiy masalalarni olib kirishga, lirik janrlar imkoniyatini kengroq ochishga harakat qilgan, xususan ruboiylarida ham turli xil mavzularda, keng badiiy tasvir vositalaridan,badiiy san’atlardan foydalangan holda ruboiylar bitgan deyishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash o‘rinliki, Noziliy kam sonli shoirlar kabi har bitta maqol yoki hikmatli so‘zga atab masal ruboiy yozgan ijodkor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O‘zbek adabiyot tarixi IV-tom.T:1978-yil

2.E.Shodiyev. Nozil Xo‘jandiy. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali 1972-yil 5-son.

3. O‘zRFA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi inv:505

4. U.Karimov. Noziliy Xojandiy. Dushanbe.1978-yil

O‘ZBEK TILIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING IJTIMOIY XOSLANISHI

Shahlo Shonazarova Qodirjon qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti talabasi

Annotatsiya: Ma’lumki, har bir tilga tegishli murojaat birliklari tarixan shakllangan bo‘lib, jamiyat va ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi natijasida davrga mos tarzda o‘zgarib boradi. So‘nggi yillarda tadqiqotchilarni sotsiolingvistik aspektda olib borayotgan tadqiqot ishlarida, muayyan jamiyatda til vositalarini amaliy qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari qiziqtirmoqda va bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar orasida murojaat birliklariga ham turlicha ta’riflar berilgan. Tilshunoslik fanining boshqa fanlar bilan integratsiyalashuvi ushbu muammolarning turli tomonlarini o‘rganish zaruriyatini tug‘diradi. Shubhasiz, til va jamiyat o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlik tilning ijtimoiy xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun tilshunoslik va sotsiologiyaning dolzarb masalalari sotsiolingvistik yo‘nalishda yangi tadqiqot mavzularining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Murojaat birliklari haqida olimlarning fikrlari va fanda qanday o‘rganilib tadbiq qilishini haqida ma’lumotlar beraman.

Kalit so‘zlar: murojaat birliklari, sotsiolingvistika, til, muloqot, tovush.

Kirish

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy omillar bilan aloqasini o‘rganadigan fan bo‘lib, bu omillar qatoriga ijtimoiy kelib chiqish, tabaqa, yosh, jins va hokazolar kiradi. Bu soha tilshunoslik sohalari ichida nisbatan yosh sanalib, 40 yillik tarixga ega. Himesning ta’kidlashicha, “sotsiolingvistikaning asosiy jihati – u tilni hayotning barcha ijtimoiy sharoitlarida qo‘llanishini tadqiq etadi”[24].

Sotsiolingvistika fani tilning jamiyatga, jamiyatning tilga munosabati masalasini o‘rganar ekan, ijtimoiy muhitni ham nazaridan chetda qoldirmaydi. Kommunikantlarning qaysi muhitda yashashi masalasini ham tahlil qiladi. “Muhit tushunchasi o‘z ichiga oilani, jamiyatni, davr va tarixni, tabiatni qamrab oladi. Insonni qurshab turuvchi barcha narsa: turmush va uning jihozlari, tabiat, jamiyat va davlat, shaxs, tarix, ya’ni turli davr va xalqlarning madaniyatlari muhit tushunchasiga

[24] Philipsen, G & M.Huspek 1985. A Bibliography of Sociolinguistuc Studiesof personal. Adress Anthropologiaal Linguistics. -596

kiradi”[25]. Demak, inson yashab turgan tabiat va jamiyat muhitni tashkil qiladi. Inson o‘sha muhitda yashar ekan, bu uning fe’l-atvoriga, shuningdek, muloqot madaniyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. “Insondagi o‘zgarishlar, eng avvalo, uning xulqida, jumladan, muloqot xulqida namoyon bo‘ladi.[26]. Til jamiyat taraqqiyoti natijasida rivojlanar ekan, ijtimoiy muhitning til va uning namoyon bo‘lish shakli - nutqqa ta’siri juda katta. Inson mansub bo‘lgan muhitning tabiati uning nutqida ham yorqin namoyon bo‘ladi. Kishilarning yashash tarzi, ish faoliyati, o‘qish tartibi, sharoiti, atrof- muhitning o‘zgarishi uning nutqida ham namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy muhitning tilga ta’siri masalasi sotsiolingvistik tadqiqotlarning diqqat markazida turadi.

“Sotsiolingvistika fanida murojaat shakllari - bu kishi o‘zi suhbat mobaynida suhbatdoshiga murojaat qilish uchun qo‘llaydigan so‘zlardir” [27]. Turli oilaga mansub tillarda turli xil murojaat shakllari – murojaat so‘zlari uchraydi va ular til va jamiyatning uzviyligini ifodalaydi. Insonlar suhbatlashayotgan paytda yagona maqsad o‘z fikr va tuyg‘ularini tushuntirib berish, yetkazish emas. Bir vaqtning o‘zida, suhbatdoshning har biri aniq vositalar yordamida boshqasiga bo‘lgan munosabatni, o‘zining jamiyatdagi guruh belgilarini va suhbatdagi o‘z o‘rnini belgilovchi jarayonda ham ishtirok etadi. Muloqot mobaynida suhbatdoshlar ma’lum bir ijtimoiy qoidaga amal qilgan holda, o‘zaro murojaat shakllarini tanlaydilar va bu bilan har ikki taraf o‘zaro aloqada ijtimoiy belgilarini ham ifodalaydilar. Ana shu ma’noda murojaat shakllarini tadqiq etish sotsiolingvistika fani nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir. Olimlar Filipsen va Huspekning ta’rifi bilan aytganda, murojaat shakllarini o‘rganish sotsiolingvistikaning eng muhim muammosi sanaladi. Murojaat shakllari va ularning ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi o‘rniga bag‘ishlangan eng mumtoz namunaga aylangan va ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ilk tadqiqot 1960 yilda Broun va Gilman tomonidan nashr qilingan[28]. Broun va uning hamkasblari xulosasiga ko‘ra, murojaat shakllari eng avvalo so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra tanlanadi va bu munosabat ikki semantik hajm va o‘lchov orqali tahlil qilinishi mumkin: bular “kuch” (status, mavqe) va “yaqinlik”. Sotsiolingvistikada so‘zlovchi va murojaat qilinayotgan shaxs o‘rtasidagi tafovutni “kuch” va “yaqinlik” doirasida eng hal qiluvchi ahamiyatga ega, asosan, besh unsurni

[25] Nosirov A. Tarixiy haqiqat va uning badiiy talqini “Yulduzli tunlar” romani misolida: filol.fanlari nomz. diss. - Toshkent, 1999. 11-bet.
[26] Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fan.diss. - Toshkent, 2000. 136-bet.
[27] Versehueren, J.2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd. - 313 б.
[28] Braun va Gilman 1960; Braun va Ford, 1961

ajratish mumkin. Murojaat qilayotgan shaxs va murojaat qilinayotgan shaxs o‘rtasidagi munosabatga ta’sir qiladigan ushbu besh omil quyidagilar: yosh, jins, egallagan mavqe-lavozim, oilaviy-qarindoshlik aloqalarining mavjudligi hamda kishilarning munosabatidagi emotsional (hissiy) yaqinlik darajasi. Til orqali ifodalanadigan muloqot shaklida murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilinayotgan shaxsga ilk ma’lumot yetkazish vazifasini o‘taydi. Sotsiolingvist olimlarning murojaat so‘zlarining qo‘llanishiga oid chiqargan xulosalarning eng e’tiborga moligi shunda-ki, har qanday murojaat shaklining qanday sharoit, qaysi o‘rinda qo‘llanishiga oid qat’iy qoidalar mavjudligidir[29].

O‘rinli qo‘llangan murojaat shakli muloqotning silliq va samarali o‘tishini, aksincha, noo‘rin shakl esa muloqotni o‘z yo‘sinidan chiqarib, uning kechuvi, natijasiga salbiy ta’sir o‘tkazishi mumkin. Muloqotning ko‘ngildagidek o‘tishi uchun so‘zlovchi tinglovchining yoshi, lavozimi, mavqeyi hamda o‘zaro aloqa va suhbat vaziyatini nazarda tutgan holda tanlamog‘i kerak. Tinglovchi so‘zlovchi va murojaat qaratilgan shaxs(lar) o‘rtasidagi munosabatni, o‘zaro kayfiyat va tuyg‘ularni qo‘llanayotgan murojaat shakliga qarab aniqlab olishi qiyin emas.

Ma’lumki, murojaat shakli va u ifodalaydigan muayyan davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsulidir. So‘zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday orin egallashi, uning yoshi, jinsi, lavozimi, kasbi, mansabiga qarab murojaat shakllari o‘zgarib boradi. Shu bilan birga murojaat shakli xalqning o‘zligini anglashi qay darajada ekanligini ko‘rsatuvchi mezonlardan biridir. “Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qollaniladigan, o‘zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turlicha konnotativ ma’nolarni, semantik “ohanglarni” tashiydigan o‘tkir ta’sirchan vositadir[30]. Darhaqiqat, murojaat birliklari hozirgi muloqot madaniyatimizdagi qo‘llanishi tarixda qo‘llanilgan murojaat birliklaridan farq qiladi, chunki ular muayyan tarixiy davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsuli hisoblanadi. Davr o‘tishi bilan bunday murojaat biriklari o‘zgarib boraveradi. Sh.Iskandarova o‘zbek xalqi muloqotida ishlatiluvchi murojaat shakllarini quyidagi omillar bilan izohlaydi[31]:

-ijtimoiy mansublik;

[29] Fasold R.2000.TheSOciolinguistiesofLanguge [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Researeh Press & oxford: Blackwell Publishers Ltd.
[30] Nazarova, N. (2022). Лингвистическое исследование антропонимов в лексической системе. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 13(13).
[31] Iskandarova Sh. Ozbek nutq odatining muloqot shakllari: fil., fan. nomz., diss. Toshkent, 1993.

-suhbatdoshlarning tanish-notanishligi;
-nutqiy harakat sharoiti;
-muloqotchilarning yoshi;
-ularning jinsi;
-yashash joyi;
-uslubiy holat;
-muloqotchilar xarakteri;

Yuqoridagi tasniflar asosida shuni ta'kidlash lozimki, murojaat shakllarini tanlashda ularning har biri muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda murojaat birliklarini sotsiolingvistik yondashuv yordamida o'rganishni ko'rib chiqishda, tilshunoslar tomonidan murojaatlar pragmatikasiga yoki to'g'ri tanlash qoidalariga, yoki moslik qoidalari va murojaatlar sintagmatikasiga murojaat qilish tavsiya etiladi. L.P.Rijovaning ta'kidlashicha, "murojaat muloqot jarayonida muloqot qiluvchilar o'rtasidagi ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning ko'rsatkichi sifatida ishlaydi. Murojaatning turli shakllarini tanlashda tanishlik darajasining pragmatik presuppozitsiyalari va muloqotning tabiati presuppozitsiyalari bilan belgilanadi, bunda muloqotning turli yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanishiga asoslanadi. Ushbu taxminlar asosida murojaatning neytral va norasmiy shakllari farqlanadi, bu esa murojaat original ijtimoiy-tartibga solish funksiyasini amalga oshirishni belgilaydi"[32].

Y.A.Aysakova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida murojaatlarni sotsiolingvistik yondashuv asosida tadqiq etadi. Tilshunos har bir murojaat shaklining ijtimoiy konnotatsiyalarini, muayyan aloqa sharoitida murojaatlardan foydalanish imkoniyati yoki imkonsizligini o'rganishga yordam beradi, deb hisoblaydi[33]. Tadqiqotchilar tomonidan murojaatlarni tanlashda ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar sifatida quyidagilarga ishora qiladilar:

-murojaatlarda ijtimoiy maqom va muloqot qiluvchilarning muloqot jarayonidagi roli;
- ijtimoiy maqomlarning teng yoki tengsizligi;
-suhbatdoshlarning jamiyatdagi doimiy ijtimoiy maqomi hamda xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi.

[32] Рыжова Л.П. Обращения как компонент коммуникативного акта: Автореф. дис ... канд. филол. наук. М., 1982. — 3 с.
[33] Айсакова Е.А. Социальная и социокультурная дифференциация обращений в современном русском языке: дисс., к.ф.н. М., 2008. — С. 18

Muloqot ishtirokchilarining muloqotdagi roli deganda shaxsning muayyan vaziyatdagi umumiy qabul qilingan standart xatti-harakatlar to‘plami tushuniladi. Ta’kidlanishicha, muloqot qiluvchining ijtimoiy roli va tegishli maqomi murojaatlarni tanlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Murojaat qilinuvchining maqomi uning qaysi ijtimoiy guruh vakili va qaysi sohaga mansubligi, kasbi, ma’lumoti kabilar bilan belgilanadi. M.Irisqulovning fikriga ko‘ra, har bir jamiyat a’zosi tilning sotsiolingvistik ishlatish qoidalarini o‘zlashtirib olishi kerak. Gapiruvchining til malakasi har bir muayyan vaziyatda til vositalaridan mazkur shart-sharoitga to‘g‘ri keladiganlarini tanlay bilishga qarab belgilanadi[34]. Bundan tashqari muloqot jarayonida kommunikatlarning yoshi ham murojaat birliklarini tanlashga ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot bir xil yoshdagi kishilar o‘rtasidami yoki turli avlod vakillari doirasida bo‘lishiga qarab murojaat birliklari tanlanadi. Kommunikatlarning jinsi, ya’ni murojaat qiluvchi va adresat jinsi ham murojaat birliklarini tanlashda farqlashga e’tibor qaratishni talab qiladi. Bu, albatta, deyarli barcha tillar uchun muhim. Shu jihatdan olib qaralganda erkaklar va ayollarga qo‘llaniluvchi murojaatlar o‘rtasida keskin farqlanishlar kuzatiladi. Bu haqida biz ishimizning keyingi faslida fikr yuritamiz. Yuqoridagilar yordamida muloqot qiluvchilarning bir-biriga o‘zaro ta’siri amalga oshadi. Bir tilda so‘zlashuvchilarning ijtimoiy tabaqalanishi, ularning doimiy ijtimoiy mavqeyi hamda o‘zgaruvchan ijtimoiy rollari murojaat birliklarini tanlanishiga, muloqotning xoslanishiga va natijada ona tilida so‘zlashuvchilarning bir necha guruhiga tegishli birliklarning, uslubiy jihatdan belgilangan shakllarning alohida guruhlanishiga olib keladi. Shu sababdan muayyan ijtimoiy guruhlarga xos nutqiy odob qoidalari ulardagi nutqiy etiketga xos tasavvurlarni ko‘rsatibgina qolmay, balki boshqa ijtimoiy guruhlarning nutqiy odob qoidalaridan keskin farqlanishi ham ko‘rsatadi:

- vaziyat turi (rasmiy, norasmiy, yarim rasmiy);
- suhbatdoshlarning tanishlik darajasi (tanish, notanish, judayam yaqin tanish);
- suhbatdoshga munosabat (hurmat bilan, ehtirom bilan, neytral, do‘stona, rasmiy, norasmiy);
- adresant va adresatning shaxsiy xususiyatlari;
- joy (uyda, ko‘chada, yig‘ilish yoki konfrensiyalarda)[35].

Keltirilgan fikrlardan ko‘rish mumkinki, murojaat birliklarini tanlashga ta’sir etuvchi omillar haqida ko‘plab tadqiqotchilarning fikrlari bir-biriga yaqin. Shuning

[34] Ирискулов М. Тилшуносликка кириш.Тошкент.: “Ўқитувич”, -Б.165.
[35]Стернин И.А. Коммуникативное поведение и межнациональная коммуникация // Этнопсихологические аспекты преподавания ин. яз. М., 1996. – С. 66-67.

uchun ham keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda murojaat birliklarining nutq jarayonidagi ifoda imkoniyatlarini ochib berish hamda ularning mazmuniy tuzilishini belgilashda nutqiy vaziyat va muloqot ishtirokchilarining nutq obyekti haqidagi umumiy ma’lumotlari va shu tildan foydalanish ko‘nikmalari kabi omillar muhim ahamiyatga ega ekanligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Murojaat birliklarini qo‘llashda kommunikativ vaziyat kim-kimga, nima haqida, nima uchun, qachon-qanday sharoitda, qanday vosita bilan so‘zlashishni o‘z ichiga oladi.

SURXON VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI VA TARIXI

Komil Ibrohimov Xolto‘ra o‘g‘li,
Og‘abek Bahronov Obidjon o‘g‘li
She rxonbekTog‘ayev Xoliyor o‘g‘li
Termiz davlat pedagogika instituti Tarix fakulteti Tarix ta’lim yo‘nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligida Surxon vohasi bekliklari etnik tarixi, aholining etnik tarkibi, ijtimoiy turmush tarzi, mashg‘ulotlari, urug‘-qavmlarning beklik hududlariga kirib ketishi, urf-odatlari va ayrim milliy an’analari tarixi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Surxon vohasi etnik tarixi, Denov bekligi, aholisi, urug‘ va qavmlarning bekliklar hududiga kirib kelishi, aholi soni.

Surxon bekliklari etnik tarixi nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lib, bu hududda yashagan aholining etnik tarkibi va ijtimoiy turmush tarzi haqida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmagan. Shunday bo‘lsa-da, ularning etnik tarixiga oid ma’lumotlarni XIX asr oxiri - XX asr boshlarida vohada bo‘lgan rossiyalik sayyohlarning asarlari va harbiy to‘plamlardagi ma’lumotlarda hamda XX asrning o‘rtalarida yaratilgan asarlar, xususan. K. Najimov, B.X. Karmisheva, K. Shoniyozov va boshqalarning tadqiqotlarida uchratishimiz mumkin. Bulardan tashqari, voha aholisidan to‘plangan dala ma’lumotlari ham bu sohaga oid tasavvurlarimizni boyitadi. To‘plangan ma’lumotlar Surxon bekliklarida yashagan aholi etnik tarkibi ancha murakkab bo‘lib, turli urug‘ va elat vakillaridan tarkib topganligini ko‘rsatadi. Vohaning o‘troq aholisi turli tarixiy davrlarda ko‘chib kelgan urug‘ va qavmlarning mushtarak etnik birligini tashkil qilsa-da, o‘zining kelib chiqishi, urf-odatlari va ayrim milliy an’analarini saqlab qolganligi bilan bir-biridan ajralib turgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, viloyatning janubiy tekislik qismida aholining joylashuvi va etnik guruhdari uning shimoliga nisbatan farq qilgan. Jumladan, Denov, Sariosiyo, Uzun, Sho‘rchi bekliklarida turli urug‘larning vakillari istiqomat qilgan. Bu hududlarda o‘zbek va tojiklar ko‘pchilikni tashkil etgan. O‘zbeklar Bobotog‘ning tog‘ oldi hududlari va Surxondaryoning yuqori qismida, tojiklar esa To‘palang, Sangardak. Obizarang, Xo‘jaipok, Qizilsuv, Qoratog‘ daryolarining o‘ng va chap qirg‘oqlarida yashashgan[36].

[36]Хидоятов Г. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана – Т., 1965. – С. 124.

XIX asr oxirlaridagi statistik ma’lumotlar Denov va Sarijo‘y bekliklarida aholining joylashuvi, ularning xo‘jaliklar soni to‘grisida tasavvurimizni boyitadi. Bu ma’lumotlarda Sariosiyo va Sarijo‘y amlokligida 1600 ga yaqin) o‘zbek oilasi hamda 1370 ta tojik oilasi istiqomat qilganligi ta’kidlanadi. Denov bekligidagi amlokliklarda esa 2500 ta o‘zbek qamda 1440 ta tojik oilasi yashaganligi haqida ma’lumot berilgan. Bu ma’lumotlar to‘liq olinmagan bo‘lishi ham mumkin. Chunki o‘sha davrlarda aholi soni biror marotaba ham ro‘yxatga olinmagan.

Rossiyalik harbiylarning o‘zlari qishloqlarda bo‘lib, ma’lumot to‘plashgan. Mahalliy hokimiyat vakillari amlokliklardagi mutasaddilariga bu haqida rasman murojaat etishmagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Surxon vohasida 264863 kishi istiqomat qilib, shulardan 13110 kishi yoki 5 foizi shaharlarda, qolgan 251753 kishi, yani 95 foizi qishloqlarda yashagan. Eng katta shaharlar soni 6 ta bo‘lib, ularga Boysun, Termiz, Yurchi, Denov, Sarijuy, Sariosiyo shaharlari kirgan. Voha aholisining 74,5 foizini o‘zbeklar, 20,2 foizini tojiklar, 3,8 foizini turkmanlar, qolgan qismini boshqa millat vakillari tashkil etgan. Sariosiyo aholisi 38085 kishidan iborat bo‘lib, ulardan 1527 kishi shaharda, qolgan qismi qishloqlarda yashagan. Aholi tarkibining 55,7 foizini o‘zbeklar, 44,3 foizini tojiklar tashkil qilgan. Boysun tumanida 42856 kishi, shundan Boysun va Darband shaharlarida 3598 kishi yashab, jami aholining 8 foizini tashkil qilgan. Aholi milliy tarkibining 44,1 foizi o‘zbeklar, 55,2 foizi esa tojiklar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Denov tumanida 69932 kishi ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan Denov shahrida 3000, Yurchi shahrida esa 1101 kishi yashagan. Aholi milliy tarkibining 83,9 foizini o‘zbeklar, 16,1 foizini tojiklar tashkil qilgan. Sherobod tumani aholisi 64471 kishidan iborat bo‘lib, shundan 2500 tasi Sherobod shahrida yashagan, aholi milliy tarkibining 97,8 foizini o‘zbeklar, 2,2 foizini arablar tashkil etgan. O‘zbekistonda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma’lumotlarini boshqa adabiyotlar bilan solishtirsak, ularda birmuncha tafovutlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan, Sherobod tumanining tog‘li hududlarida tojiklar ham yashagan, lekin bu aholi ro‘yxati ma’lum otlarida qayd qilinmagan. B.X. Karmisheva va A. Qayumovlar keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra, Sherobod tumani qishloqlarida yashovchi aholining 4,7 foizini tojiklar tashkil etgan. Jarqo‘rg‘on amlokligida 28859 kishi istiqomat qilgan. Aholi milliy tarkibining 97,8 foizini o‘zbeklar, 2,1 foizini arablar, 0,1 foizini esa turkmanlar tashkil qilgan. Pattakesarda (Termiz shahri va uning atrofi) 20651 kishi, shu jumladan, Termiz shahrida 4284 kishi istiqomat qilgan.

Aholi milliy tarkibining 41,1 foizi o‘zbeklar, 51,2 foizi turkmanlar, 7,7 foizi boshqa millat vakillari (yaxudiylar, afg‘onlar va boshqalar) hisobiga to‘g‘ri kelgan[37].

Bu o‘rinda shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Buxoro amirligining yer maydonlari va aholisi to‘g‘risida olib borish bilan shug‘ullanganlar. O‘zbek chig‘atoylaridan Sherobod vohasida 1627 kishi, Poshxurdda 1000 kishi, shuningdek, quyi Surxon va Amudaryo vodiysining Termiz tumanida 2160 kishi yashaganligi, Surxonning yuqori qismida tojik chig‘atoylaridan 9490 kishi, o‘rta qismida 3420 kishi yashaganligi ma’lumotlarda qayd qilingan. Vohada yashovchi chig‘atoy urug‘lari ikki guruhga – o‘zbek va tojik chig‘atoylariga bo‘lingan. Sariosiyo va tumanlarining tog‘li qismlarida yashovchi tojiklar ikki guruhga mansub bo‘lib, birinchisiga azaldan yashab kelgan ko‘histoniy (toqchi), ya’ni o‘zlarini tub joy aholisi deb hisoblovchilar, ikkinchi guruhga esa turli joylardan kelgan viloyati yoki hisorilar kirgan. Birinchi guruhga mansub ko‘histoniy tojiklari uncha katta bo‘lmagan tog‘li G‘urut, Shotrud, Qarsh, Tamshush, Choch, Nilu, Zevar va boshqa qishloqlarda, ikkinchi guruhga mansub viloyati yoki hisorilar esa Xufar, Sina, Malau, Sariosiyo, Yurchi, Dehqalanlar va boshqa qishloqlarda yashaganlar. Bu hududlardan tashqari Ko‘hitang tog‘ining sharqiy yon bag‘rida tojik chig‘atoylarining o‘nga yaqin qishloqlari ro‘yxatga olingan. Ulardan Sherjon, Vandob, Poshxurd va Chakoblar yirik chig‘atoy qishloqlari sifatida qayd qilingan. Yuqoridagi birinchi ikkita qishloqda yashovchi tojik tilli chig‘atoylar qatag‘onlar bilan birga yashashgan. Poshxurddagi aralash aholining ko‘p qismini tojik chig‘atoylari tashkil etgan. Sherobod daryosi bo‘yida joylashgan Darband, Sayrob va Panjob qishloqlari ham tojik tilli chig‘atoylarning yirik qishloqlari hisoblanadi. Tojik chig‘atoylaridan Ko‘hitang tog‘ining sharqiy yon bag‘rida 1755 kishi, Sherobod daryosi havzasida 3718 kishi, Boysun daryosi havzasida esa 4000 kishi, Surxondaryoning yuqori qismida 9490 kishi ro‘yxatga olingan. 1889 yili Darbandda bo‘lgan polkovnik Belyayevskiy u yerda yashagan urug‘lar haqida muhim ma’lumotlar qoldirgan. U tog‘li Darband hududida tojiklar, o‘zbeklarning qo‘ng‘irot urug‘i vakillari ham ko‘pchilikni tashkil qilishi, ulardan tashqari qovchin, laqay va boshqa urug‘larning alohida qishloqlari bo‘lganligini ta’kidlaydi. O‘sha davrdagi ma’lumotlarga ko‘ra, qo‘ng‘irotlar tojiklar bilan turmush qurmaganlar, ruslar bilan xohlamay munosabatda bo‘lganlar, hukumat talablarini deyarli bajarmaganlar. O‘zbek tilida so‘zlashuvchi xo‘jalar vohaning ikki joyida qayd qilingan. Shulardan Poshxurdda 1110 kishi, Surxon daryosining

[37]Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М.: Наука, 1976; Қаюмов Л. Шеробод воҳасининг этник таркиби (X1X-XX аср бошлари) // Узбекистонда ижтимоий фанлар. - 1998. №3. – Б.35.

Qumqo‘rgon yaqinidagi sohillarida esa 220 kishi ro‘yxatga olingan. Sherobod tumanida o‘zbek xo‘jalari Zarabog‘, Poshxurd, Qorabog‘ va boshqa qishloqlarda, Surxonning o‘ng sohilida esa Jaloir, Toq-To‘g‘ay qishloqlarida, daryoning chap sohilidagi Xo‘ja qishlog‘ida, bundan tashqari, Termiz yaqinidagi Solixobodda, Boysunda Omonxona va Hamkonda, Denov shahri va uning atrofida, Sariosiyo va Dashnobod qishloqlarida ham istiqomat qilishgan. Qo‘ng‘irotlar Surxon vohasida yashovchi eng katta o‘zbek urug‘i hisoblangan. Ular XIX asr boshlarida G‘uzor, Termiz va Bobotog‘ tizmasi yonbag‘irlarigacha bo‘lgan keng hududlarda yashagan. Ma’lumotlarga ko‘ra, qo‘ng‘irotlar 31148 kishini tashkil etgan. Shundan Boysundaryo havzasida 3525, Sheroboddaryo havzasida 18385, Termiz atrofi va Amudaryo vodiysida 3525, Surxondaryo vodiysida 9375 kishi istiqomat qilgan. O‘rta asrlarda Dashti Qipchoqdan kelib vohada yashagan o‘zbek qabilalari vakillari orasida qo‘ng‘irotlar boshqa o‘zbek urug‘lariga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan. Boysun, Termiz va Sheroboddan G‘uzorgacha bo‘lgan keng hududlar qo‘ng‘irotlar yurti hisoblangan. Qo‘ng‘irotlarning mazkur hududlarda gavjum tarqalishiga Shayboniylar davridagi «ulus tizimi» sabab bo‘lgan, deyish mumkin. Qo‘ng‘irotlar ko‘plab urug‘, oila va o‘zaro qarindosh guruhlarga bo‘lingan bo‘lib, ularning urug‘-qabilalari xususida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning har bir urug‘i Sherobod vohasining muayyan hududlari bo‘ylab joylashgan. Jumladan, Qo‘ng‘irotlarning Vaxtamg‘ali shoxobchasi vakillari Sherobod daryosining o‘rta oqimida, Ko‘hitang tizmasidagi Gurjak, Turin, Jangariq va Xo‘jaqiya qishloqlarida, qo‘shtamg‘alilar Sheroboddaryoning o‘rta oqimidagi Chilonzor, Hamkon qishloqlarida, qonjig‘alilar Sherobod va Jarqo‘rgon hududlarida tarqalgan. Oyindilar Ko‘hitang tog‘ining sharqiy qismida joylashgan Qizil olma va Poshxurd qishloqlarida yashashgan. Tortuvlilar asosan Boysun bekligi hududlarida, ya’ni Sheroboddaryo bo‘yidagi Xo‘jabulg‘on, Tillakamar, Daxanaijom qishloqlari va Boysun shahri hamda uning atrofidagi ba’zi qishloqlarda yashaganlar. Qo‘ng‘irot urug‘lari Sherobod vohasidan tashqari Surxondaryo vohasi bo‘ylab ham ko‘p joylarda tarqalgan. Qoratog‘daryo havzasida 13140 ta, Surxon vohasining yuqori va Bobotog‘ qismida 9375 ta qo‘ng‘irotlar vakillari borligi aniqlagan. Ular Sariosiyo va Denov tumanlariga bundan 170-180 yillar avval Dehqonoboddan kelishgan. Qo‘ng‘irotlar Surxon vohasining yuqori qismida, tog‘li va boshqa qishloqlarida yashaganlar. Ma’lumotlarga ko‘ra, yuzlar bundan 250-300 yillar oldin Samarqanddan Sho‘rchiga kelib joylashganlar. Keyinroq esa ular Denov va Sariosiyo tumanlariga ham ko‘chib kela boshlagan. Yuzlarning Oltinsoy va Sherobod tumanlarida ham yashaganliklari ma’lum. O‘zbek yuzlaridan tashqari vohada turkman yuzlari ham bo‘lib, ularning vohaga kelish tarixi haqida uch

xil fikr mavjud: birinchi fikrga ko‘ra, ular qo‘ng‘irotlar kabi shimoliy yurtlardan. ikkinchisiga ko‘ra, ular bu yerga O‘ratepa va Nurotadan ko‘chib kelgan. uchinchisiga ko‘ra esa Sulton Sanjar tomonidan 100 ta turkman ko‘chirib keltirilgan va shuning uchun ular yuz (juz), ya’ni turkman-yuzi deb atalgan. Qatag‘onlar Surxon vohasining yuqori qismlarida Denov, Oltinsoy, Sariosiyo hududlaridagi asosan Sangardak, Changloq, Bog‘cha va boshqa tog‘li qishloqlarda tojiklar bilan aralash yashashgan. Aholi ro‘yxati hisobotlariga qaraganda, qatag‘onlardan Ko‘hitang tog‘i sharqiy yonbag‘irlarida 1190 kishi, Sherobod vohasining o‘rta oqimida 2695 kishi, yuqori qismida 665 kishi, Surxonning o‘ng qirg‘og‘ida 1055 kishi ro‘yxatga olingan. I. Xidoyatov qatag‘onlar bu tumanlarga asosan XVIII asrda Afg‘onistondan kelib joylashgan, degan xulosaga kelgan. Toqchi qatag‘onlari Ko‘hitang tog‘ining sharqiy qismidagi Xo‘jaanko, Bedak, Xatak va Zarautsoy qishloqlarida hamda Zarabog‘da tojiklar va o‘zbek xo‘jalari bilan, Sherjonda esa tojiklar bilan aralash yashaganlar. Sherobod daryosining o‘rta oqimida joylashgan Xatak va Tanish qishloqlarida ham qatag‘onlar uchraydi. Ular boymoqdiki, sherdiki, xidirdiki, ko‘chakdiki kabi shoxchalarga bo‘lingan. Shuningdek, ular Sherobod daryosining yuqori oqimida joylashgan Kengdala, Qizilnur, Ko‘mirchi va Ko‘ksoy kabi qishloqlarda istiqomat qilishgan. Boysun shahri va uning atrofidagi qishloqlarda toqchi qatag‘onlarining kam sonli guruhini uchratish mumkin. Hozirgi paytda ular Sherobod, Angor va Muzrobod tumanlaridagi ko‘pgina qishloqlarda chig‘atoy urug‘i vakillari bilan birgalikda yashab kelmoqdalar. Vohadagi o‘zbek qavmlaridan biri turklar o‘z o‘rnida uchta urug‘ga, ya’ni qarluq turklari, barlos turklari va kaltatoyi turklariga bo‘lingan. Turklarning ko‘p sonli guruhini Boysun bekligi va Sherobod vohasining turli joylarida uchratish mumkin. O‘zbekistonning janubiy tumanlarida turklarning soni 23212 kishini tashkil qilgan. Shulardan Surxonning yuqori oqimida 3641 kishi, Qoratog‘ daryosi xavzasida 12003 kishi ro‘yxatga olingan. Turklar Boysun shahri va uning atrofidagi Saroytosh hamda Turk qishloqlarida, ulardan tashqari Inqobod, Omonxona va Machay daryo havzasidagi Yuqori Machay qishlog‘ida ham istiqomat qilishgan. Tadqiqotlarda Sherobod vohasining Sherobod shahri yaqinidagi Gegirdak va Navubog‘ qishloqlarida o‘zbek tilli chig‘atoylar hamda afg‘onlar aralash yashaganligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хидоятов Г. К вопросу о формировании населения южных районов Узбекистана // Из истории культуры народов Узбекистана – Т., 1965. – С. 124.

2. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. - М.: Наука, 1976; Қаюмов Л. Шеробод воҳасининг этник таркиби (X1X-XX аср бошлари) // Узбекистонда ижтимоий фанлар. - 1998. №3. – Б.35.

3. Tursunov S. Surxondaryo tarix ko‘zgusida.Toshkent,Sharq.-2001.B.112.

4. Ochildiev F. Surxon vouasi bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va idtisodiy uzgarishlar (XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlari). - T:

5. Tojimurodovich, Q. N. (2023). Administrative Structure and Management System of the Becks in Surkhan Oasis. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY, 4(10), 87-92.

6. Tojimurodovich, Q. N. (2022). BUXORO AMIRLIGIDA SURXON VOHASI BEKLIKLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(9), 36-39.

7. NAMOZ, Q. (2022). THE HISTORY OF MADRASAH SAID OTALIQ. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(1), 10-13.

8. Tangrikulov, J. E. (2021). PRESS IN UZBEKISTAN: CLASSIFICATION OF POPULAR MAGAZINES AND NEWSPAPERS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 1451-1455.

9. Tangrikulov, J. E., & Rakhmatov, E. T. (2020). Cotton work. Work of Uzbek people" fiction: causes, consequences, results. ISJ Theoretical & Applied Science, 7(87), 70-73.

10. Tangrikulov, J. E. (2021). " Red terror" in uzbekistan in the 80s of the 20th century: Causes, results, consequences.

11. Oybek, P. I. (2022). In the Study of the History of Surkhandarya in the 30s of the XX Century, as a Historical Source. Eurasian Journal of History, Geography and Economics, 7, 100-102.

12. Isayev, O. (2019). THE CULTURAL LIFE IN SURKHAN OASIS: INFORMING OF ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS BASED ON ARCHIVAL MATERIALS (1925–1941 YEARS). The Light of Islam, 2019(4), 31.

13. Isaev, O. A. (2021). Contradictory processes in the reform of agriculture in the Surkhandarya oasis in the 20-30s of the XX century. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 942-946.

UCHINCHI RENESSANS BARPO ETISHDA IJTIMOIY - GUMANITAR VA TABIIY FANLARNING O‘QITILISHINING AHAMIYATI HAMDA MUAMMOLARI

Anorgul Sapayeva Rahimovna
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xorazm akademik litseyi biologiya fani o‘qituvchisi

Mahbuba Otakova Alisherovna
O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Xorazm akademik litseyi huquqshunoslik fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o`rta ta’lim va professanal ta`lim muassasalarida tabiiy va ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitishning ahamiyati hamda mamlakatimizda bu fanlarni o‘qitilishidagi muammolar, ularni bartaraf qilish borasida qilinayotgan ishlar va bu sohalardagi ta’lim tizimining rivojlanishi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy – gumanitar va tabiiy fanlar o‘qitish metodikasi, allomalar merosi, ta’lim tizimidagi muammolar, ularni bartaraf qilish borasidagi ishlar, falsafa, tarix, pedagogika, psixologiya, ekologiya, didaktika.

Аннотация: В статье говорится о значении преподавания естественных и социальных и гуманитарных наук в средних и профессиональных учебных заведениях, проблемах преподавания этих наук в нашей стране, проводимой работе по их устранению, развитии системы образования в России. эти области идут.

Ключевые слова: методика преподавания социальных, гуманитарных и естественных наук, наследие ученых, проблемы в системе образования, работа по их устранению, философия, история, педагогика, психология, экология, дидактика.

Annotation: The article talks about the importance of teaching natural and social and humanitarian sciences in secondary education and professional educational institutions, the problems in teaching these sciences in our country, the work being done to eliminate them, and the development of the educational system in these areas. goes

Keywords: methodology of teaching social, humanitarian and natural sciences, heritage of scholars, problems in the educational system, work on their elimination, philosophy, history, pedagogy, psychology, ecology, didactics.

So‘nggi vaqtlarda tez - tez jamiyat hayotida ommaviy axborat vositalarida uchunchi renessans, renessans atamasini ko‘p eshitmoqdamiz. Ho‘sh “Renessans” atamasi nima bu o‘zi, hozirgi ta’lim tizimi bilan qanday aloqadorligi bor, bizga nima uchun kerak, kabi savollarga javob izlaymiz behosdan.

“Renessans” fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyat, ilm-fan, san’at, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin XV-XVI asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo‘ydi. Darhaqiqat tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX-XII asrlar, ikkinchisi

XIV asr oxirgi choragi-XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturudiy va Abul Muin Nasafiy kabi atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda — Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Al Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’mor, bastakor, musavvir, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur.

«Hozirgi vaqtda mamlakatimizda yana bir muhim Uyg‘onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun „Yangi O‘zbekiston“va „Uchinchi Renessans“ so‘zlari hayotimizda o‘zaro uyg‘un va hamohang bo‘lib yangramoqda, xalqimizni ulug‘ maqsadlar sari ruhlantirmoqda», — deya fikr bildirdi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston» gazetasi muhbiriga bergan interyusida.

«Yangi O‘zbekistonni barpo etish-bu shunchaki xohish, istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir», [3, 2-b.].kabi so‘zlar bilan boshlanuvchi Prezident

Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi» nomli kitobida ham Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritilgan.

Bugungi kunda uchinchi renessans poydevorini har bir soha har bir fan har bir islohat negizida ko‘rishimiz mumkin. Shu o‘rinda Uchinchi renessans barpo etishda ijtimoiy - gumanitar va tabiiy fanlarning o‘rni va ahamiyati kattaligini eslatib o‘tishimiz lozim. Muhtaram Prezidentmiz rahnamoligida qilinayogan bu ishlar, har bir yo‘nalishdagi ulkan o‘zgarishlar zamirida, avvalam bor, inson va uning qadri yotadi. Barcha sohalar qatori ijtimoiy va tabiiy fanlarga berilayotgan e’tibor bu fanlarning uchinchi renessans poydevori uchun nechog‘li muhim ekanligini anglatadi. Birgina misol sifatida yoshlaning bilimini yanada oshirish va takomillashtirish maqsadida Prezident ta’lim muassasalariga qarashli har bir viloyat, tumanlarda ixtisoslashtrilgan maktablar tashkil etildi. 2022-yil 14-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish to‘g‘risida”gi PF-106-sonli Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmon asosida 193 ta ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlar Prezident ta’lim muassasalari agentligi tizimida tashkil etiladi. Shundan 168 tasi 2022-2023-o‘quv yilida o‘z faoliyatini boshladi. Qolaversa, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek hamda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablarning tashkil etilganligi ham chet tili, adabiyot, tarix, geografiya, kimyo, biologiya kabi ijtimoiy - gumanitar va tabiiy fanlar rivojining nechog‘li zarur ekanini ko‘rsatadi. Bundan tashqari o‘quvchilar o‘rtasida bo‘ladigan olimpiadalarda Olimpiada g‘oliblari hamda ularning o‘qituvchilarini taqdirlash va rag‘batlantirish bo‘yicha 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori.Unga ko‘ra asosiy olimpiadaning uchinchi bosqichida g‘olib bo‘lgan har bir o‘quvchiga quyidagi miqdorda pul mukofotlari beriladi:

1-o‘rinni egallagan o‘quvchiga — bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari;

2-o‘rinni egallagan o‘quvchiga — bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravari;

3-o‘rinni egallagan o‘quvchiga — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravari.

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi bosqichida g‘olib bo‘lgan har bir o‘quvchiga quyidagi miqdorda pul mukofotlari beriladi:

1-o‘rinni egallagan o‘quvchiga — bazaviy hisoblash miqdorining 12 baravari;

2-o‘rinni egallagan o‘quvchiga — bazaviy hisoblash miqdorining 8 baravari;

3-o‘rinni egallagan o‘quvchiga — bazaviy hisoblash miqdorining 6 baravari.

Asosiy olimpiadaning to‘rtinchi bosqichida 1, 2, 3-o‘rinlarni egallagan o‘quvchilarga ixtisoslik fani bo‘yicha davlat oliy ta’lim muassasalariga kirish imtihonlarida maksimal ball olish huquqini beruvchi va uch yil muddat davomida amal qiluvchi elektron sertifikatlar Vazirlik tomonidan beriladi va uning alohida elektron reyestri yuritiladi. Bundan tashqari huquqshunoslik fanlarini o‘qitilishini takomillashtirish, yosh avlodning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish madsadida, huquqshunoslik fanlari oliy ta’lim muassasalari uchun asosiy fanlar sirasiga kiritilganligi, huquqshunoslik fanidan milliy sertifikat tashkil etish uchun tajriba tariqasida test sinovlarini tashkil etilishi, nechog‘liq bu fanlar tizimini muhim ahamiyat kasb qilishini anglatadi.

Buyuk bobokalonlarimiz hisoblangan Abu Ali Ibn Sino tabiy fanlar rivojini butun dunyoga tanitgani kabi, huquqshunoslik fanlarini butun dunyoda mashhur qilgan Abu Nasr Farobiy va Burhonidin al Marg‘unoniy kabi buyuk allomalarimiz o‘z adabiy merosi bilan huquqshunoslik fanlarini poydevorini qo‘rib ketganlar desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yurtimiz tarixidagi bunday buyuk allomarimiz bilan nafaqat faxrlanishimiz, balki ularga munosib izdosh bo‘lishga harakat qilishimiz biz yoshlarning ham farz, ham qarzimiz hisoblanadi. Buning uchun avvalo o‘zimiz birinchilardan bo‘lib olg‘a siljishimiz lozim zero Prezidentimiz qadimgi yunon faylasufi Suqrotning “O‘zgalarni o‘zgartirmoqchi bo‘lgan inson, avvalo, o‘zini o‘zgartirishi lozim. Buning uchun esa, aniq maqsad, tolmas iroda va doimiy izlanish kerak”, degan hikmatli iborasi bu borada hammamiz uchun asosiy mezon bo‘lishi zarur degan so‘zlari hammamizni oldinga siljishimizga kuch beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘rta asrlar Sharqining mashhur olim va mutafakkirlari: kitob-albom. Sh.Salixov va boshq. -Toshkent: «O‘zbekiston», 2016.-156 b.

2. Buyuk yurt allomalari. Matn / tuzuvchi va nashrga tayyorrlovchi U.Uvatov, -Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2016, -424 b.

3.Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi: Sh.Mirziyoyev. Toshkent: «O‘zbekiston», 2022 -410 b.

4. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Toshkent «O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi», 2004. - 266 б.

SECURITY ISSUES IN THE HOTEL SYSTEM: A CASE OF CHINESE HOTEL INDUSTRY

Shokhnoza Farkhodova
Tashkent State University of Oriental Studies, Master's student, Tashkent, Uzbekistan
farhodovashahnoza@gmail.com

Abstract. In this article, the legislative framework of the People's Republic of China focused on security issues in the hotel system and using the country's experiences in the field of tourism will be included recommendations to increase the security level of hotels in Uzbekistan. The implementation of a medical staff in hotels is the basis of ensuring the medical safety of guests.

INTRODUCTION

In the tourism industry, the availability of touristic resources and infrastructure, as well as the safety of existing infrastructures, are one of the issues that are of constant importance for the development of tourist flow. If it is deemed that the touristic infrastructure is a set of services aimed at meeting the daily needs of the tourist, apartment-providing is an significant need for every tourist who are visiting a tourist destination.

Hotel security is a strategy of measurements which are targeted at managing the safety and security of guests in and around the hotel, which in turn includes personal, property and vehicle security of guests and security procedures, systems and personnel in the rooms. At this point, it should be said that in today's modern society, hotels that offer services to domestic and international tourists as accommodation with certain standards have had their own characteristics in every era. In the past centuries, hotels were called "karvonsaroy" in eastern countries which means to say somewhere is possible to stop and sleep, and their importance in society was related to overnight stays. 21st century hotels can offer not only overnight stays, but almost all services that make visitors feel the atmosphere of a personal home. For an instance, these services include car rental, spa, helipad, golf course, casino, hotel beaches and resort facilities. However, it is not seemed sufficient for state-of-the-art hotels in the era of globalization processes. Because, regardless of whether hotels have all kinds of amenities, the fact that the guests' safety is ensured to leave a

reliable brand impression on the customers mind regarding to this hotel where safety and security system can be applicable.

RESEARCH METHODOLOGY

The hotel business as a service sector is an essential part of the tourism industry, which differs from other types of industries such as manufacturing and agriculture. As well, the safety and security system in hotels is considered as a key point of attracting touristic flow in the touristic destinations.

Lashley notes how the focus of service delivery and how it is received are based on first impressions by the customer. These are often described as ‘moments of truth’ where there is the emotional management of labour to ensure that the customer obtains a quality product and the highest level of service delivery. [1]

According to Darrell Clifton, “While it is hard enough to protect a nuclear power plant from intruders, terrorists, thieves, and spies, it is even more difficult to keep those same persons out of a hotel that is open to the public. Many of the traditional methods of security, such as locks, alarms, and cameras, are still used at our facilities, but we also have to employ more creative methods, such as patrol, behavioral recognition, and passive deterrence (signs, reminders, and awareness)”. [2]


Lebe and Vrecko say that many consumers prefer if the company has responsibility; it will help company get more consumer loyalty (2014). [3]

RESULTS

The most visited countries in the world have always paid special attention to the safety of tourists. At the same time, China is one of the largest tourism investment markets, while the hospitality industry is a rapidly developing economy, and this industry is once again becoming one of the most important economic pillars of the country. The People's Republic of China is one of the countries that implement legal and practical reforms to make tourists feel safe in hotels. In China, which is a leader among developed countries, you can find 5-star hotels with unusual shapes, from ten-dollar capsules. The Chinese government will take legal measures to regulate the activities of star hotels that show such a high rating and are recognized by world tourists as safe hotels. The government has taken a serious series of actions to boost hotel safety and security measures in this country, including strict rules and standards for hotel construction and operation. For example, every night Chinese hotels are required to report about foreigners staying in their hotels to the local public security office. This is done in order to ensure national and international security of the country.

By the end of 2022, there were about 279,000 hotels and about 14.3 million accommodations in China. Almost 19,600 of these hotels are located in China's four major cities: Beijing, Shanghai, Guangzhou and Shengzan. [4]

Figure. 1 Tourist visits to the People's Republic of China (by year)



Source: World Tourism Barometer – Volume – 21 Issue 2 – May 2023 data.

It is clear that before the pandemic, China as a touristic destination received more than 65 thousand tourists and received 254.6 billion dollars from tourism. Since 2020, due to the decrease in the flow of tourists, the indicators of the export volume of tourism have also started to decrease. It is known that Covid-19 has had a significant negative impact on the growth of tourism in the economy of a developed country like China. Despite this, today the People's Republic of China has significantly recovered its tourism potential. According to the information provided by the Ministry of Tourism and Culture, 119 million local tourists traveled around the country as part of the 3-day Qing Ming Festival, which is widely celebrated as a traditional spring holiday in China. [5] Using China's experience in tourism security, which has shown rapid growth in tourism, and establishing international cooperation can be useful for Uzbekistan's national model of tourism development.

Beijing City Government Summit No. 54, Beijing People's Government Resolution No. 178 Review of the “Hotel Security Law” to strictly establish security measurements in hotels and contained a number of articles on taking valuable measures in case of violations of the established laws. [6]

Personnel training issues are also important according to the law so that customers do not get food poisoning in hotels. In case of violations of the provisions specified in this Law, the Tourism Administration, as the responsible organization, will apply administrative penalties in accordance with the provisions.

DISCUSSION

There are several dangers that threaten the safety of tourists in hotels, and to avoid them, tourists are required to be aware in hotels. As well, hotels play a crucial role in ensuring the safety of guests by implementing appropriate measures to mitigate possible threats and risks in hotels.

Table 1. Several threats which are encountered by tourists in hotels.

/r	Threats	Description	Solutions
.	Criminal cases	This includes theft, robbery, assault or other criminal activity on or around the hotel premises.	Security measures such as surveillance cameras and security guards are installed in the hotels.
.	Sanitation problems	Tourists may face health risks related to poor sanitation, food, infectious diseases, bed bugs or other hygiene problems in the hotel environment.	Hotels are responsible for cleanliness and implementing appropriate hygiene protocols to prevent the spread of infectious diseases.
.	Natural disasters	Hotels located in areas prone to natural disasters such as earthquakes, hurricanes, floods or forest fires may pose a threat to the safety of tourists.	Hotels should have emergency preparedness plans for the evacuation of guests and the provision of emergency care and emergency medical assistance during such events.
	Fire hazard	Faulty electrical	Hotels must comply

.		wiring, inadequate fire safety measures and fire hazards pose a threat to guest safety in hotels.	with fire safety regulations, conduct regular inspections, and train employees and guests on safety from fire.
.	Terrorist acts	Tourists may face the threat of terrorist attacks or acts of violence targeting hotels and tourist destinations.	Implementing security measures such as screening processes and emergency response protocols such as biometric verification to protect guests from terrorist threats can be an effective response to the threat.
.	Cyber safety	As technology and the use of online booking platforms develop, tourists may face fraud such as data breaches and identity theft when using hotel services or accessing Wi-Fi networks.	Hotels are encouraged to invest in cybersecurity measures to protect guest privacy and facilitate secure transfers and ensure security.

Taking into account the above-mentioned risks, the hotel association pays great attention to security issues, as well as creating sufficient conditions for the relaxation and recreation of visiting international and domestic tourists. However, in the Internet era, it is considered appropriate to increase security measurements. In particular, it is important for tourists to be aware of the risks that are likely to occur and take precautions to protect themselves while staying in hotels.

CONCLUSION

Paying special attention to security issues in the hotel system in Uzbekistan by studying the legal framework of the People's Republic of China, which has a unique tourism model in the tourism industry and has been able to attract humanity for centuries with the “Great Wall of China” is becoming an important part of the period. At this point, it is permissible to create the position of a medical worker in hotels in order to strengthen security measures in hotels of Uzbekistan. The presence of an emergency medical personnel in the hotel significantly reduces the risk level when customers feel symptoms of illness, when an existing disease in the body attacks,

food poisoning and similar situations are observed. In order to create hotels that meet world standards, the following are recommended:

- formulation and implementation of hotel services organization requirements;
- ensuring that hotel employees are trained in professional development courses every three years (especially chefs, waiter/waitress and restaurant employees);
- regulating necessary conditions for providing medical services in hotels;
- to consider the issues of applying strict measures and bringing administrative responsibility in cases where hotel services are not properly organized.

References:

1. Ahmed Hassanien, Crispin Dale, Alan Clarke. Hospitality Business Development. First edition. Oxford. Elsevier. 2010. 17 p.
2. Darrell Clifton. Hotel Security: Ensuring security in today's hotel, accommodation, entertainment and tourism environment. CRS Press. Taylor&Francis Group. Boca Raton, 2012. 25 p. [2]
3. Kai Yang. A comparative study of sustainability in the hospitality sector in Chinese hotels. Master Thesis. 2019. 9 p. [3]
4. Lashley, C., 2000. Hospitality Retail Management. Butterworth-Heinemann, Oxford. [1]
5. Legal framework of the People's Republic of China. http://www.lawinfochina.com [6]
6. People's Republic of China, Ministry of Tourism and Culture. http://www.chinaculture.org [5]
7. www.unwto.org - World Tourism Organization official website.
8. www.chinaculture.org – China People's Republic Tourism and Culture Ministry official web-site.
9. www.lawinfochina.com – China People's Republic legislation data.
10. https://www.statista.com/statistics/1274120/china-number-of-hotels-and-rooms-by-city-tier/ [4]

TABLE OF CONTENTS

No	Article authors and topics	Pages
1	*AI IN ENGLISH TEACHER TRAINING* *Jakhongir Khasanov*	4-7
2	*O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI* *Dildora Xakimdjanova Kamilevna*	8-12
3	*“STRIZH” VA “LORA” TEXNOLOGIYALARINI SOLISHTIRISH* *Gulshanoy Yunusova Umarali qizi,* *Eldorbek Xujamkulov G‘ayratjon o‘g‘li,* *Janibek Kurbanov Fayzullaevich,* *Izzatjon Qodirov Abrorjon o‘g‘li*	13-17
4	*КОРХОНАЛАРДА ИННОВАЦИЯ ВА ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ* *Муаззамхон Шаисламова Рахимходжаевна*	18-30
5	*CHEGARALARNI KENGAYTIRISH: ZAMONAVIY TELEKOMMUNIKATSIYALARDA BO‘SH FAZO OPTIKASINING ROLI* *Gulshanoy Yunusova Umarali qizi,* *Muhammadaziz Xokimjonov Yursunali o‘g‘li,* *Janibek Kurbanov Fayzullaevich,* *Izzatjon Qodirov Abrorjon o‘g‘li*	31-37
6	*PRIORITY DIRECTIONS OF THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN* *Malika Parpieva Mukhamadjonovna*	38-47
7	*ICHKI VA TASHQI XATARLARDAN VEB ILOVALARNI HIMOYA QILISH ALGORITM VA DASTURINI ISHLAB CHIQISH* *Temurbek Ismoilov Begali o‘g‘li* *Furqat Raxmatov Abdirazzoqovich*	48-51

8	МАЪНАВИЙ МЕРОСНИ ЎРГАНИШ ВА ИЛМИЙ АНЪАНАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЯНГИ ҲАРАКАТЛАР Ситора Саидова Алишеровна	52-59
9	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DARSLIKLARIDA JADID NAMOYANDALARI ASARLARIDAN FOYDALANISH Gulhayo Ahadovna	60-62
10	ASSESSING THE ENVIRONMENTAL IMPACT ON TOURISM DEVELOPMENT Onabibi Kamilova Bahodir qizi	63-69
11	NARRATIVES IN THE DIGITAL AGE: ASSESSING THE IMPACT OF DIGITAL STORYTELLING AND SOCIAL MEDIA ON TOURISM DESTINATION BRANDING AND CONSUMER ENGAGEMENT Vaziraxon Zokirova Alimardon qizi	70-80
12	EHTIMOLLAR NAZARIYASINING XIZMAT KO'RSATUVCHI MAJMUANING BANDLIGIGA TADBIQI. Gulhayo Komolova Shukirillo qizi	81-85
13	ПОВЫШЕНИЕ СТОЙКОСТИ ИНСТРУМЕНТА ИЗ БЫСТРОРЕЖУЩЕЙ СТАЛИ ПРИ ПОМОЩИ ЛАЗЕРНОЙ ОБРАБОТКИ ПРЕДВАРЯЮЩЕЙ НАНЕСЕНИЕ ИЗНОСОСТОЙКОГО ПОКРЫТИЯ Рухшона Эрмаматова Эркин кизи	86-90
14	NISHOTIYNING O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDAGI MAVQEYI Manzura Axmedova Raxmatovna	91-94
15	KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O'QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI Mahliyo Ko'chkinova Norbutayevna	95-103
16	TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN	104-109

	MUAMMMOLAR *Nafisa Buranova Ziyodullayevna*	
17	*BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARIDAGI TELEMATIK TIZIMNI TAHLIL QILIB TOSHKENT SHAHRI AVTOMOBIL YO‘LLARIDA QO‘LLASH* *X.X. Xayitov* *R.M. Xudaykulov* *I.S. Sodikov*	*110-117*
18	*АНАЛИЗ ОБРАЗА ЖЕНЩИНЫ В ПОВЕСТИ Ч. АЙТМАТОВА «ДЖАМИЛЯ» И ГУЗЕЛЬ ЯХИНОЙ «ЗУЛЕЙХА ОТКРЫВАЕТ ГЛАЗА»* *Акбаров О.А.* *Абдулхонова Шахзодахон Ганишеровна*	*118-122*
19	*“UGLEVODORODLAR” TEMASINAN EKOLOGIYALIQ MAZMUNDA TEST DUZIW* *Elmira Abdisattarova Abdijamilovna* *Miribek Sultanov Jabbarbergenovich* *Feruza Sarsenbaeva Marat qızı*	*123-126*
20	*USE OF THEONYM IN FOLKLORE TEXTS* *Dilfuza Ernazarova Odilovna*	*127-131*
21	*NAMANGAN VILOYATINING OLXO‘RI(PRUNUS) NAVLARI* *Shahboz Solijonov Zafarjon o‘g‘li* *Doniyor Mamadaliyev Shojalil o‘g‘li* *Xaticha Abduraxmanova Raximjon qizi*	*132-136*
22	*ALISHER NAVOIY "XAMSA"SIDA KOMIL INSON SHAXSI MASALASI* *Durdona Ziyoidinova Tursunali qizi* *Ahrorjon To‘xtasinov Akbarali o‘g‘li* *Zilola Rahmatova Ahmadjon qizi*	*137-140*
23	*ZAMONAVIY SHAROITLARDA TEXNIKALARNI EVAKUATSIYA QILISH BO‘YICHA TEXNIK TA’MINOT TADBIRLARI: MUAMMO VA YECHIMLARI* *Mustafakulov F.T.*	*141-144*

24	AMIR TEMURDA SARKARDALIK FAZILATLARI TUYG'USINI SHAKLLANISHI A.B. Baxratov	145-150
25	2013 ГОД – НОВЫЙ ПОВОРОТ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КНР Мадина Абдуманнонова Алимардон кизи	151-156
26	ВЛИЯНИЕ pH СРЕДЫ НА ПРОЦЕСС СОПОЛИМЕРИЗАЦИИ АКРИЛАМИДА И ИТАКОНОВОЙ КИСЛОТЫ Алламуратова А.С., Шарипова А.И., Абдикамалова А.Б.	157-164
27	KASR TARTIBLI DIFFERENSIAL TENGLAMALAR UCHUN GALYORKIN USULI Shaxobiddin Karimov Tuychiboyevich Robiyaxon Mamajonova Abduxalil qizi	165-171
28	INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING ETIMOLOGIK TAHLILI Rustam Karimov Abdurasulovich Nurali To'xtaev Negmurodovich	172-178
29	IBRAT ASARLARIDA ANTONIM SO'ZLARNING QO'LLANILISHI Odina Axmadaliyeva Sharifa Iskandarova	179-182
30	NOZILIY RUBOIYLARINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATI Abdulvosit Gulobov Nurulla o'g'li	183-185
31	O'ZBEK TILIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING IJTIMOIY XOSLANISHI Shahlo Shonazarova Qodirjon qizi	186-191
32	SURXON VOHASI AHOLISINING ETNIK TARKIBI VA TARIXI	192-197

	Komil Ibrohimov Xolto'ra o'g'li, *Og'abek Bahronov Obidjon o'g'li* *She rxonbekTog'ayev Xoliyor o'g'li*	
33	***UCHINCHI RENESSANS BARPO ETISHDA IJTIMOIY - GUMANITAR VA TABIIY FANLARNING O'QITILISHINING AHAMIYATI HAMDA MUAMMOLARI*** *Anorgul Sapayeva Rahimovna* *Mahbuba Otakova Alisherovna*	*198-201*
34	***SECURITY ISSUES IN THE HOTEL SYSTEM: A CASE OF CHINESE HOTEL INDUSTRY*** *Shokhnoza Farkhodova*	*202-207*

ESLATMA!
“SCIENCE SHINE” xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan ma’lumotlar va dalillarni haqqoniy va keltirilgan iqtiboslarni to‘g‘riligi hamda aniqligi uchun shaxsan mualliflar javobgardirlar!

NOTE!
The authors are personally responsible for the truthfulness of the information and evidence included in the international scientific journal "SCIENCE SHINE" and the correctness and accuracy of the quotations!



International scientific journal
SCIENCE SHINE

Issue 16.
25. 05. 2024

©Jurnal hajmi: 213 bet.
©Farg‘ona viloyati, O‘zbekiston Respublikasi
©http://science-shine.uz/